

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 81 (1680), 2026-yil 24-aprel, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## HAR BIR LOYIHA, HAR BIR TASHABBUS XALQIMIZ FAROVONLIGIGA XIZMAT QILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-aprel kuni Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumaniga tashrif buyurib, tuman hokimligi faoliyati, joylardagi bunyodkorlik va infratuzilmani rivojlantirish ishlari bilan tanishdi.



Prezidentimiz tashrifni Mirzo Ulug‘bek tumani hokimligining binosi va unga tutash hududdagi obodonlashtirish ishlari bilan tanishishdan boshladi. Dastlab Salar kanali ustida qurilgan va yaqinda ta'mirlangan ko'prikn ko'zdan kechirdi. Jarayonda hududdagi ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishib, ezgu an'anaga ko'ra ko'chat ekildi.

Bahor yomg'iridan so'ng gullar, yashil olam yanada tiniqlashgan. Ular ham ko'p millatli xalqimiz kabi hayotga kulib boqayotgandek. Ayniqsa, hokimlik binosiga uyg'un holda ko'zga tashlanadigan yashil hududda o'zgacha shukuh hukm surmoqda. Salar kanaliga yaqin joydagi bolalar maydonida o'g'il-qizlarning quvnoq kulgisi eshitiladi. Ushbu ajib manzara beixtiyor yaqin tarixni eslatadi. Bugun yangi O'zbekistonning yosh avlodi hech kimgan kam bo'lmay vovayaga yetyapti. Ular har tomonlama yetuk bo'lib ulg'ayishi uchun bog'chadan oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz o'qitish tizimi tubdan isloh qilindi. Iqtisodiy-ijtimoiy masalalar mahallaning o'zida hal etiladigan bo'ldi. Bunday keng ko'lamli yangilanishlar

o'z-o'zidan amalga oshgani yo'q, albatta. Bu o'zgarishlar mamlakat yetakchisining uzoq yillardan buyon qalbid saqlangan orzu va intilishlari, shunga monand puxta o'ylangan rejalarini samarasidir.

Davlatimiz rahbari 1992-1996-yillarda Mirzo Ulug‘bek tumani hokimi lavozimida faoliyat yuritgan. Bu xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy sinovni boshdan kechirayotgan palla edi. O'shanda fidoyi, xalqparvar yetakchining sa'y-harakatlari tufayli tuman ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlandi.

Prezidentimizning tuman hokimi bo'lib ishlagan kezlardagi kabineti o'sha davr qiyofasida tiklandi. Xotiralarni yodga soluvchi xizmat mashinasi namoyish etildi. Mamlakatimiz yetakchisining tuman hokimi sifatida qabul qilgan eng muhim qarorlari matni ko'rgazmaga qo'yildi. Davlatimiz rahbari ularni ko'zdan kechirar ekan, esdaliklari bilan o'rtoqlashdi.

Darhaqiqat, bugun yangi O'zbekistonda hokimlik, umuman, davlat idoralari butunlay yangicha qiyofa kasb etdi. Ular xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari

xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan qat'iy qarash bilan faoliyat yuritmoqda. Buni Mirzo Ulug‘bek tumani misolida ham ko'rish mumkin. Tuman hokimligi binosida boshqaruv va xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoit yaratilgan.

Shu paytgacha tumanda jamoat xavfsizligi, transport, ijtimoiy yordam, kommunal xo'jaligi, molliya va bank kabi 30 ta tashkilot o'z yo'nalishi bo'yicha alohida-alohida, tarqoq ishlayotgan edi. Yagona tizim yo'qligi aholi murojaatini tezkor hal qilishga xalal berar, ortiqcha vaqt va sarsongarchilikka sabab bo'lar edi.

Hokimlikda vaziyatlar markazi tashkil etildi. "Aqlli tuman" platformasi ishlab chiqildi. U sun'iy intellekt asosida holatni tahlil qiladi. Muammolarni tezkor aniqlab, hal etishga qaratilgan choralarini taqdim etadi. Muhimi, tumandagi barcha mahalla vakillari bilan onlayn muloqot qilish mumkin. Bu vaziyatdan muntazam xabardor bo'lish imkonini beradi. Shuning o'ziyoq masalalarini joyida, aniq tahlil va to'g'ri yechim orqali hal etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yangi tizim orqali ijtimoiy va kommunal muammolar ham monitoring qilinadi. Ayni paytda aholi murojaatlari ijrosini nazorat qilish imkonini beradi. Favqulodda holatlarda tegishli xizmatlar faoliyati tezkor boshqariladi va muvofiqashtiriladi.

Platforma tarkibidagi "Xavfsiz tuman" tizimi huquqbuzarliklarni monitoring qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyektlarining raqamli xaritasi sun'iy intellekt tahlili asosida soliq tushumlarini prognoz qilish va ularning yig'iluvchanligini ta'minlashga qaratilgan. "AI Davomat" tizimi esa maktablarda sababsiz dars qoldirish holatlarini bartaraf etish, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, yangi O'zbekistondagi boshqaruv tizimi zamonaviy qiyofadagi yanada xalqchil tizimga aylanib boryapti desak, mublag'a bo'lmaydi. Bunday platformalar Chilonzor, Shayxontohur va Olmazor tumanlarida ham ishga tushirildi.

Prezidentimiz vaziyatlar markazi faoliyati bilan tanishib, ushbu yangi tizimni poytaxtning qolgan tumanlarida ham joriy etishga topshiriq berdi. Barcha viloyat hokimlari, prokurorlari, ichki ishlar, xavfsizlik va soliq idoralari rahbarlari Mirzo Ulug‘bek tumaniga kelib, ushbu yangi tizimni o'rganishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Albatta, xavfsiz va osuda Vatan bag'rida hayot shiddati bir soniya ham susaymaydi. Ayniqsa, zamonaviy shaharlarda turizm ko'chalarining mutasil ishlashi iqtisodiy ko'rsatkichlar oshishiga xizmat qiladi. Shu bois, so'nggi yillarda gastronomik ko'chalar ko'payib bormoqda.

Prezidentimizning navbatdagi manzili Mirzo Ulug‘bek tumanidagi O'zbekiston ovozi ko'chasi bo'ldi. Bu yerda mamlakat yetakchisi gastronomik turizm ko'chasi faoliyati bilan tanishdi.

Turizm allaqachon iqtisodiyot drayveriga aylanib bo'ldi. Chunki u resurslardan oqilona foydalanish orqali kam xarajat evaziga katta daromad keltiradi. Toshkent shahrida bunday istiqbolli loyihalar uchun katta imkoniyatlar bor. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek tumanida mazkur salohiyatdan to'liq foydalanish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmogda.

Shu vaqtgacha O'zbekiston ovozi ko'chasi oddiy, ko'rimisizgina yo'lak edi. So'nggi yillarda orttirilgan tajriba sabab ko'chada bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Ushbu loyihaga davlatimiz rahbarining 2022-yil 30-apreldagi "Ichki

turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim huquqiy asos bo'ldi. Natijada ko'cha mamlakatimizdagi turizm va servis sohaslarini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tiborning amaliy ifodasiga aylandi. Ushbu loyiha Rossiyaning "City Makers" va "Lyudi Arxitekts" byurolari tomonidan ishlab chiqilib, 2025-yil sentabrda ishga tushirildi.

Loyihaning umumiy qiymati 40 milliard so'm. Unda 165 ta savdo obyekti faoliyat yuritmoqda. Shundan 89 tasi uzluksiz ishlash tartibiga o'tgan. Natijada 2221 ta yangi ish o'rni ochilgan.

Ko'chani umumiy uzunligi 2,1 kilometr. Bu yerda zamonaviy infratuzilma yaratilgan. Jumladan, piyodalar va velosipedlar uchun keng yo'laklar barpo etilgan. Aholi va sayyohlar uchun qulay sharoit mavjud. Selfi hududlari, ochiq sport maydonchalari tashkil etilgan. Shuningdek, oilaviy dam olish maskanlari, bolalar uchun ekomaydonchalar va arqonli bog' faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari ko'cha bo'ylab yurar ekan, zamonaviy uslubda ta'mirlangan xonadonlar, obod ko'chalar va aholi uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi, aholi bilan samimiy suhbatlashdi.

Shu yerning o'zida Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi turizm va gastronomik ko'chalarda qilingan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Qayd etilganidek, 2025-yildan poytaxtda 26 ta ko'cha tunu kun faoliyat yurita boshladi. Bu ishlarga 540 milliard so'm yo'naltirildi. Natijada 1103 ta yangi savdo va servis obyekti tashkil etilib, 315 ta tadbirkorlik subyekti 24/7 rejimida ishlay boshladi. Muhimi, 26 ta xorijiy brend faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bunday ishlar iqtisodiy o'sishga sabab bo'lishi tabiiy. Jumladan, ko'chalarda turli xizmatlardan foydalanuvchilar soni sutkasiga 80 mingdan 200 mingga yetdi. Buning ortidan 6000 yurtdoshimiz ishl bo'ldi.

Joriy yilda marra yanada baland olinib, rejalar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, yana 18 ta yangi turizm ko'chasi tashkil etiladi. Shu orqali 500 ta yangi obyektni ishga tushirish va 7000 tagacha yangi ish o'rni ochish rejai haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz Mirzo Ulug‘bek tumanida gastronomik turizm ko'chalarini yanada ko'paytirish, imkoniyatlarini to'liq ishga solish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi.

Tumanda yangi bunyod etilgan "Pavilion" savdo majmuasi faoliyati bilan ham tanishildi.

Mazkur majmua — bugunning ayni talabi. Chunki hozir mamlakatimiz keng qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylangan. Shahar-u qishloqlarimizda barpo etilayotgan zamonaviy turar joylar, ijtimoiy obyektlar, ishlab chiqarish majmualari — bularning barchasi qurilish materiallariga talabni oshirmogda. Xaridor qurilish mollarini qayerdan oladi? Albatta, bozordan, shunday mahsulotlar sotishga ixtisoslashgan do'konlardan. Lekin ular turli hududlarda joylashgan bo'lishi mumkin. Bu esa xaridorga vaqt va mablag' nuqtayi nazaridan noqulaylik tug'diradi. Mazkur majmua aynan shunday noqulayliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Qiyamati 25 million dollarlik, 4,6 gektar hududda barpo etilgan savdo majmuasi boshqa turdoshlaridan zamonaviy yondashuvlari bilan farqlanadi. Buni o'ziga xos klaster tizimiga ham qiyoslash mumkin. Xususan, uch qavatli savdo markazida qurilish sohasidagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, rasmiy dilerlar va ushbu yo'nalishda xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini birlashtiruvchi ekotizim barpo etilgan.

Davlatimiz rahbariga majmua faoliyati va imkoniyatlari haqida axborot berildi. Prezidentimiz qurilish mahsulotlari do'konlarini ko'zdan kechirdi.

— Xalqimizning turmush tarzi yaxshilanib, istaklari ortyapti. Bu kabi savdo majmualarida milliy mahsulotlarimizga ko'proq o'rin berish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni jalb qilish va logistikani to'g'ri yo'lga qo'yish lozim, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Toshkentning tarixiy o'n ikkita darvozasi bo'lganini eslatib, bugun poytaxt atrofida ham shunday, turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan zamonaviy savdo markazlarini ko'paytirish zarurligini aytdi.

42 ming kvadrat metr dan iborat 500 ta savdo do'koni yiliga 3 milliongacha xaridorga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Bu yerga kelgan xaridorlar barcha do'konni aylanib, vaqt yo'qotmaydi, mahsulot tanlashda qiynalmaydi. Chunki markazga keluvchilarga, avvalo, loyihadan tortib, mahsulot tanlashgacha va xaridor tanlovi qancha mablag' talab etishgacha bo'lgan jarayon sun'iy intellekt yordamida tezkor aniqlab beriladi.

▶ Davomi 2-betda

### PREZIDENTIMIZGA TURKIYA BILAN HARBIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH BORASIDAGI ISHLAR HAQIDA AXBOROT BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mudofaa vaziri Shuhrat Xolmuhamedovning Turkiya bilan harbiy hamkorlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobotini tingladi.

Uchrashuvda Turkiya Respublikasi Qurolli Kuchlarining yuqori martabali vakili ham ishtirok etdi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida ikki mamlakat mudofaa idoralari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Harbiy-texnik hamkorlik izchil rivojlanib, jumladan, idoralararo aloqalar kengayib borayotgani, qo'shma tadbirlar tashkil etilib, harbiy mutaxassislar tayyorlanayotgani alohida qayd etildi.

Harbiy sohadagi sheriklikni yanada chuqurlashtirish borasidagi intilish qat'iy ekan ta'kidlandi.

O'ZA

### MINTAQAVIY EKOLOGIK SAMMIT

TUZILMALAR VA XALQARO TASHKILOTLARNI STRATEGIK YECHIMLAR ISHLAB CHIQUISH YO'LIDA BIRLASHTIRDI



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi yig'ilishida ishtirok etish uchun 21-22-aprel kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ldi.

▶ Davomi 2-betda



Bugun gazetamizning maxsus sahifalari orqali Samarqand viloyati Payariq tumanida qaytadan bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasi haqida hikoya qilamiz. Majmua yuksaklik va yetuklik ramzi, bunyodkorlik salohiyati timsoliga aylangani, u yerdagi innovatsion muzey — ma'rifatning boqiy manbai sifatida bo'y ko'rsatgani maqolalar mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, tarbiya va ibrat maskanining barpo etilish xronologiyasi hamda xorijiy mehmonlar e'tirofi bilan tanishasiz.

▶ 3



## HAR BIR LOYIHA, HAR BIR TASHABBUS XALQIMIZ FAROVONLIGIGA XIZMAT QILMOQDA

### Boshlanishi 1-betda

Odatda bu jarayon, ya'ni ta'mir yoki qurilishni arxitektorlar yordamida loyihalash, qurilish mahsulotlari xarid qilish, unga quruvchi ustalar topish uchun 15-20 kun vaqt ketadi. Bu yerda esa malakali mutaxassislar sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda ushbu ishni bir necha daqiqada bajaradi.

Majmua faoliyati yo'lga qo'yilishi hisobiga 2000 ta yangi ish o'rni ochildi. Bu yerda, asosan, mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar sotiladi. Xaridorlarga yuqori sifatni ta'minlash va qulaylik yaratish maqsadida qurilish mahsulotlari savdosi bilan bir qatorda obyektlar qurilishi yoki ta'miri uchun dizayn-loyihalash hamda professional ta'mirlash, maslahat berish xizmatlari ham yo'lga qo'yilgan.

— Mijoz 500 ta do'konni aylanib, hammadan narx so'rab, vaqt yo'qotib yurmaydi. Birgina tizim orqali hammasini solishtirib, o'ziga eng kerakli yoki ma'qul bo'lgan narx hamda brenddagi materiallarni tanlab olaveradi, — deydi majmuaning marketing bo'yicha direktori Zafar Azimov. — Qolaversa, bu yerda dizayn, arxitektura, hamma turdagi ta'mirlash va hujjatlashtirish ishlarida ham ko'mak beriladi. Mijozlarning aynan qaysi mahsulotga qiziqishiga qarab mutaxassislar birlashtiriladi. Bu xaridorlar uchun ham, paviyonda ijara asosida ishlovchi tadbirkorlar uchun ham qo'shimcha qulaylik tug'diradi.

Inson qadrini ulug'lash yangi O'zbekistondagi islohotlarning muhim va ustuvor mezonidir. Bu har jabhadagi yangilanishlar, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, mahallalardagi yuksalishlarda o'z aksini topmoqda. Prezidentimiz qayerga tashrif buyurmasin, islohotlar markaziga aylangan mahallalarga borib, odamlar bilan dildan suhbatlashadi. Ularning kayfiyati, yashash sharoiti bilan qiziqadi. Bu gal ham shunday bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tumaning Bog'imaydon mahallasida bajarilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Bog'imaydon mahallasi yangilanishlar natijasida mutlaqo yangicha qiyofa kasb etgan. 1987-yilda tashkil etilgan mahallada hozir 41 ta ko'p qavatli uy,

1990 ta xonadon mavjud bo'lib, qariyb 5500 kishi istiqomat qiladi.

Hududda 20 ta bolalar o'yingohi, 11 ta vorkaut maydonchasi, 3 ta mini futbol maydoni va tennis korti barpo etilgan. 2 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida qariyb 500 bola qamrab olingan.

Mahallada iqtisodiy faollikni oshirish va aholi bandligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bunda hududda faoliyat yuritayotgan 70 dan ziyod tadbirkorlik subyekti muhim o'rin tutmoqda. Jumladan, mahalladagi 1048 yigit-qizdan 949 nafarining bandligi ta'minlangan.

Hududda yashillikni asrash va kengaytirishga ham e'tibor katta. Shu maqsadda 2022-yili ekobog' tashkil etilgan. Qariyb 4500 tup daraxt ekilgan ushbu bog' bugun keksayu yosh uchun sevimli dam olish maskaniga aylangan. Shuningdek, mahallada ijtimoiy muhitni mustahkamlashga xizmat qilyotgan "Nuroniyalar maskani" ham faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari mahallada xavfsiz muhitni ta'minlash bo'yicha bajarilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi. Bugun turar joylar kirish qismi kuzatuv kameralari va qo'riqlash puliti bilan jihozlangan. Hududga kirib chiquvchilar va avtotransport vositalari zamonaviy texnologiyalar asosida nazorat qilinmoqda.

Prezidentimiz aholi uchun yaratilgan sharoitni ko'zdan kechirib, mahalla oqsoqollari va faollar bilan muloqot qilindi. Obod va fayzli mahalla jamiyat tayanchi ekanini ta'kidlab, tinchlik, hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash doimo ustuvor vazifa bo'lib qolishini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari mahallada tashkil etilgan sumalak saytida ishtirok etib, mahalla ahli va bolajonlar bilan suhbatlashdi. Shuningdek, sport maydonchasida shug'ullanayotgan yoshlar bilan uchrashib, jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzining barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishdagi ahamiyatiga alohida o'xtaladi.

**Boboravshan G'UZIDDINOV,  
Dilshod ULUG'MURODOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari**

## HAYOT BOG'INING TAROVATI

### Mahalla o'zgarsa — jamiyat o'zgaradi

Rishton tumani xususida gap ketganda, ko'pchilikning ko'z oldiga mohir kulollar va ular yasagan buyumlar keladi. Bu bejiz emas, albatta. Qariyb 800 yillik tarixga ega sopol buyumlar dunyo hamjamiyati taraqqiyotida munosib o'rin egallab kelayotgan san'at asari sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, bu zaminada go'zallikka ishtiyoqmandlar juda ko'p. Ammo qalbi va niyati ezgu bo'lmagan inson chiroyli buyumlar, ko'zni quvnatuvchi ashyolar yashasi amri mahol. Asl haqiqat esa mehnat va izlanishda. Kimdir tirikchilik qayg'usi bilan yashasa, boshqa biri totuv hayot orzumandi. Bularning barchasi mahalla deb atalmish tabarruk qo'rg'ondagi kundalik yumushlardan. Odamlar ba'zan quvonch, ba'zan mahzunlik bilan mahallaga yuzlanadi, mahalladoshlariga suyanadi.

"Dehqonobod" mahalla fuqarolar yig'ini mamlakatimiz taraqqiyotiga hamohang rivojlanayotgan maskanlardan. Bu yerda kulochilik an'analaridan tashqari, tadbirkorlik, tomorqachilik, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirib, yangi ish o'rinlari ochilmoqda, qo'shimcha daromad manbalari ko'paymoqda.

Dilshodjon Mavlonov tomorqada gul yetishtirib, ko'pga namuna bo'lib kelayotgan yoshlardan. Xonadonni kirishingiz bilan anvoiy gullar ifori dimog'ni qitiqlaydi, turfa ranglar ko'zingizni oladi. Avvaliga shunchaki qiziqishdan boshlangan loyiha Dilshodni yirik tadbirkor, oilaviy korxonaga rahbari sifatida elga tanitdi. Yosh ishbilardan "mahalla yetiligi" qo'llab-quvvatlovi bilan imtiyozli kredit oldi. Zamonaviy istish tizimlarini o'rnatib, yil davomida sarxil ko'chatlar yetishtirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

— Mavsumda 8-10 ming tup archa, 100 ming tupdan ziyod landshaft va dekorativ gullar, 100 ming tupdan ortiq mevali daraxt ko'chati, 20 ming tupga yaqin kuzgi gul yetishtirib, bozorlarga chiqaramiz, — deydi "Shamshod Fayz Baraka 2021" oilaviy korxonasi rahbari Dilshod Mavlonov. — Har bir gul turining o'ziga yarasha "fe'l-avori" bor. Urug'ini ekib, parvarishlab, ekish uchun tayyor holga keltirguncha har biri bilan do'stlashib ketadi odam. Xrizantema, gazaniya, salviya, petuniya singari ko'zni yashnatuvchi gullar ko'cha, xiyobonlar, dam olish maskanlariga o'z gacha ko'rk, ulug'vorlik berib turganini ko'rib, charchoqni unutib, yangi gul turlarini ko'paytirishga oshiqaman.

Xaliljon Gadoyboyev ham shu mahallada yashaydi. "O'rmonjon hoji" bog'dorchilik fermer xo'jaligi negizidagi 80 sotix maydonda asosan atirgul yetishtiradi. Shu bilan birga, bu yerda mevali va manzarali daraxtlar niholi ham bisyor.

— Xo'jaligimda 12 navli 15 ming tup atirgul niholi, 20 xilga yaqin mevali daraxtlar bor, — deydi bog'bon. — Atirgul aprelning oxirlarida g'unchalaydi va sotuvga tayyor bo'ladi. Yil davomida 80-90 ming dona gul qalqamchasi sotamiz. Tuman markazida gul do'koni ham ochganmiz. Shu bois, g'unchasi uzoq vaqt saqlanadigan atirgul turlarini olib kelyapmiz. Ularni parvarishlab, ko'paytirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va ilmiy asosda yondashishga harakat qilamiz. Joriy mavsumda gul g'unchalarini issiq haroratan saqlash texnologiyasini qo'llay boshladik. Bu usul issiq ob-havo sharoitida ham sarxil gul g'unchalarini yetishtirishda qo'l keladi.

Bog'bon barpo etgan bog'lar havasini keltiradi. "Yaqinda mevalarimiz pishadi, mehmonga kelinglar", deydi u samimiyat bilan. G'arq pishgan shaftoliyu ta'mi tilyorar qandak o'rik, aqiq lablarga qiyos qilinuvchi gilos singari sarxil mevalarni ko'z oldimizga keltiramiz. Bog' sayliga yana kelish istagini bayon qilib, bog'bon bilan xayrlashamiz.

O'rmonjon O'rinovning "Botanika bog'i"da bo'ldik. Bog' qo'yimda baraj o'sayotgan turfa noyob daraxtlar havasini keltiradi. Keksalikka bo'yin bermay kelayotgan O'rmonjon aka go'zallik shaydolaridan. Jildirab oqayotgan ariq ustiga archa g'uddalaridan bejirim kompozitsiya asosida mo'jaz ko'priq

quribdi. Unga monand to'rt-besh chog'li kishi bemalol sig'adigan ayvonli uy, stol-stul e'tiboringizni tortadi. So'rilar yog'och va shoxlardan yasalgan, ularga archa g'uddalari, daraxt po'stlog'i bilan bezak berilgan. Jihozlarni yasashda birorta mix yoki boshqa temir ashyo ishlatilmagan. Bog'da lola, qog'oz daraxti, eman, oq qayin, archa singari manzarali daraxtlar tabiiy usulda parvarishlanayapti. Bularning eng noyobi Farg'ona shahridagi Marg'ilonsoy qirg'og'ida o'sayotgan, o'z turi bo'yicha Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Amerika botqoq kiparisini yodga soladi. Soy qirg'og'ida 1895-yili ekilgan, ayni damda 130 yoshdan oshgan daraxt "Qizil kitob"ga kiritilib, davlat muhofazasiga olingan. El orasida "botqoq malikasi" nomi bilan mashhur daraxt endi mahallaning botanika bog'ida tabiiy sharoitda baraj rivojlanayapti.

— Ayni damda 50 xildan ortiq daraxt va butalar o'syapti, — deydi O'rmonjon ota. — Bu yerda ko'plab ekologlar, agronomlar, tabiatshunoslar, maktab o'quvchilari keladi. Daralar o'tiladi. Kelganlar noyob daraxtlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, o'rganadi. Nihollami ekish davri, ularning vegetatsiya jarayonini tadqiq qiladi. Imkon qadar noyob turlarni ko'paytirib, yurtimizni yashillikka burkashga hissa qo'shishga harakat qilyapman.

Dehqonobod — shunchaki mahalla emas, bir oila. Bu yerda har bir insonning dardi ham, quvonchi ham birdek bo'linaidi. Mehribon opa-akalar, duogo'y otalar-onalar, kelajak egalari bo'lgan yoshlarning barchasi mahallamizning boyligi, — deydi fuqarolar yig'ini raisi Shuhratjon Haydarov. — Mahallamiz ming yillik tarixga ega.

Hududda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar vaqtida qadimiy kulochilik qoldiqlari, osorat-qalar topilgan. Keyingi yillarda nafaqat kulochilik va hunarmandchilik, balki bog'dorchilik, ko'chatchilik, gulchilik, issiqxonada sabzavot yetishtirish ham daromadli sohalardan biriga aylandi. Bugungi mahalla faoliyatini avvalgi tuzilmaniki bilan qiyoslab bo'lmaydi. Endi hammasi boshqacha: ish sharoitimiz yaxshilandi, vakolatlarimiz kengaydi. Odamlarni tinglab, muammolarini hamjihat barafar etish choralarini ko'ryapmiz. Asosiy maqsadimiz — aholining bugunidan rozi bo'lib yashashga erishish, ertangi kunga ishonchini oshirish. Shu kunga qadar sug'orma suv ta'minoti yaxshilash maqsadida bitta tik quduq qazildi. Elektr ta'minoti yaxshilash uchun esa uchta yangi TP, 136 ta beton tayanch ustun o'rnatilib, 5 kilometr dan ortiq elektr sim tortildi. Uch kilometr ga yaqin ichki yo'l asfaltlandi. Ilgari mahallamizda maktabgacha ta'lim tashkiloti yo'q edi. Hozir ikkita nodavlat bog'cha faoliyat yuritayapti.

Qiyalanganlarga suyanchik bo'lish, mehr-muruvvat ko'rsatish xalqimizga xos fazilatlaridan. Keyingi yillarda bu qadriyatimiz yanada rivojlandi. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga manzilli yordam ko'rsatish ko'lami kengaydi. Qisqa muddatda bu yo'nalishda ko'plab amaliy ishlar qo'l urilib, masalalarga yechim topilmoqda.

— Mahallamizda nogironligi bo'lgan 38 shaxsa xizmat va yordam ko'rsatib kelinadi, — deydi ijtimoiy himoya xodimi Birohila Qodirova. — Barcha masala xonadonbay o'rganilib, ehtiyojmandlarga nogironlar aravachasi, ortopedik poyabzal va protez, hassa, funksional kreslo-aravachalar va maxsus matras singari jihozlar yetkazib beriladi. Bundan tashqari, 80 yoshdan oshgan va oilasida nogironligi bo'lgan shaxslar parvarishiga ishsiz fuqarolar birlashtirildi. O'tgan yilning o'zida 80 dan ortiq oilaga turli ko'rinishdagi moddiy-ma'naviy yordam berildi, qo'llab-quvvatlandi.

Dehqonobod mahallasida hayotning har lahzasidan bahra olib, obod va farovon hayot ishtiyog'i bilan yashayotgan kishilar ko'p.

**Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

## MINTAQAVIY EKOLOGIK SAMMIT

### TUZILMALAR VA XALQARO TASHKILOTLARNI STRATEGIK YECHIMLAR ISHLAB CHIQISH YO'LIDA BIRLASHTIRDI

#### Boshlanishi 1-betda

Bugungi global ekologik kun tartibi nafaqat xalqaro hamkorlikning alohida yo'nalishi, balki jahon siyosati va barqaror rivojlanishning asosiy o'lchovlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Iqlim o'zgarishi kuchayib borayotgan, tabiiy resurslar tanqisligi tobora sezilayotgan murakkab har sharoitda davlatlarning strategik yechimlar taklif qila olishi va samarali hamkorlik modellarini yo'lga qo'ya bilishi ularning xalqaro maydondagi haqiqiy o'rini belgilamoqda. Bu borada O'zbekistonning roli tobora yaqqol namoyon bo'lyapti. Buni mazkur yo'nalishda puxta ishlab chiqilgan amaliy strategiya taklif etilayotganida ham ko'rish mumkin.

Soha mutaxassislari e'tirof etayotganidek, O'zbekiston tashabbuskorlik, pragmatizm va xalqaro kooperatsiyaga asoslangan mintaqaviy hamda global yetakchilik modelini ilgari surmoqda.

Prezidentimiz BMT minbaridan Markaziy Osiyo ekologik kun tartibini yagona, o'zaro bog'liq hudud sifatida ilgari surishni tizimli davom ettirmoqda. Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi sessiyalaridagi nutqlarida urg'u nafaqat mahalliy muammolar, balki suv xavfsizligi, yer degradatsiyasi va iqlim o'zgarishlari oqibatlarini bo'yicha jamoaviy mas'uliyat zarurligiga qaratilmoqda.

Bu yondashuv xalqaro iqlim forumlarida izchil davom ettirildi. Xususan, 2024-yilda Ozarbayjonning Boku shahrida BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasida (COP29) ham qator dolzarb tashabbuslar ilgari surilgandi.

2025-yil yanvarida Abu-Dabida o'tkazilgan Barqaror rivojlanish haftaligi sammitida ham Prezidentimiz yangi O'zbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejankorligiga asoslangan "yashil" rivojlanish modeliga o'tish ekanini ma'lum qilgandi.



**Alisher SALOMOV,  
Ekologiya va iqlim o'zgarishi  
milliy qo'mitasi raisi  
maslahatchisi**

O'tgan yili Samarqandda o'tkazilgan xalqaro iqlim forumi O'zbekistonning

samarali muloqot maydoni sifatidagi maqomini mustahkamladi. Bu esa mamlakatimizning global ekologik muhokamalarda tashkilotchi va moderat sifatida ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Ahamiyatlisi, O'zbekiston faqat tashqi faollik bilan cheklanib qolmayapti. Mamlakat ichida ham ekologik siyosatni tubdan transformatsiya qilish jarayoni izchillik bilan amalga oshirilmogda. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish va bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha strategik hujjatlar qabul qilingan.

Bu yo'nalishda qator yirik loyihalar ro'yobga chiqarilmogda. Xususan, birgina "Yashil makon" loyihasi doirasida o'tgan davrda qariyb 1 milliard tup daraxt va buta ekildi. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ortiq maydonda o'rmonzor barpo etilib, yangi "yashil belbog"lar yaratilmogda.



**"O'zbekiston faqat tashqi faollik bilan cheklanib qolmayapti. Mamlakat ichida ham ekologik siyosatni tubdan transformatsiya qilish jarayoni izchillik bilan amalga oshirilmogda. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish va bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha strategik hujjatlar qabul qilingan.**

### Nuqtayi nazar

Prezidentimiz Ostona sammitidagi nutqida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Bu tashabbuslardan ma'lum bo'ldiki, O'zbekiston nafaqat o'z muammolarini hal qilishda jonbozlik ko'rsatmogda, balki butun mintaqa uchun ekologik kun tartibidagi yetakchiga aylanmogda.

Atmosfera havosi sifati yomonlashayotgan sharoitda "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini ta'sis etish ana shunday tashabbuslardan biri. Konsorsium sanoatni modernizatsiya qilib, havoga chiqarilayotgan zararli moddalar uchun tozalash tizimlarini joriy etadigan "yashil" moliyalashtirishning qo'shma operatoriga aylanishi mumkin. Bu mintaqa aholisi salomatligini himoya qilishda muhim qadam bo'ladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo atrof-muhitidagi o'zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratish ham mintaqa kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu atlas mintaqadagi cho'llanish, tuproq degradatsiyasi jarayonlari va suv resurslari holati dinamikasini yaqqol ifoda etadigan fundamental ilmiy-tahliliy bazaga aylanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan global tashabbuslar va ekologik kun tartibining ustuvor yo'nalishlari ham mahalliy, ham xorijiy ekspert doiralarda keng muhokama qilinoqda.

Sammit va uning doirasidagi tadbirlar mintaqaviy tuzilmalar hamda qator xalqaro tashkilotlarni ushbu yo'nalishda amaliy yechimlar ishlab chiqish yo'lida birlashtirgani bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ostonada "Barqaror kelajak uchun umumiy nioh" shiori ostida o'tkazilgan mintaqaviy ekologik sammit Markaziy Osiyoning global ekologik kun tartibidagi o'sib borayotgan rolini aks ettiradi. Bu iqlim xavflarini yengib o'tish, tabiiy resurslarni asrash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan yagona mintaqaviy strategiyani shakllantirish yo'lidagi yana bir muhim qadamdir.

## BIOXILMA-XILLIKNI ASRASHNING AMALIY PLATFORMASI

Bugun iqlim o'zgarishi, suv resurslari qisqarishi, havoning ifloslanishi, yerning sho'rlanishi va degradatsiyasi, yashil hududlarning kamayishi kabi global ekologik muammolar insoniyat oldidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, biologik xilma-xillikning qisqarib borishi nafaqat tabiat, balki mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham jiddiy xavf tug'dirmogda.



**Diljon MAMADALIYEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
deputati**

Shunday murakkab sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ishonch, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan "Yangi Markaziy Osiyo" hamkorlik modeli rivojlanib borayotgani mintaqa mamlakatlarining umumiy muammolarini birgalikda hal etishga qodirligini namoyon etmogda.

**"Ostona shahrida o'tkazilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisi hamda Mintaqaviy ekologik sammit ana shu hamkorlikning amaliy ifodasidir.**

Sammit doirasida davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslar mintaqa ekologik xavfsizligini ta'minlash va tabiiy muvozanatini saqlash borasida yangi bosqichni boshlab beradi.

**"Muayyan turning yo'qolishi tabiiy zanjirning buzilishi, bu esa, o'z navbatida, butun ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu kabi muammolar bir davlat hududi bilan cheklanib qolmaydi, butun mintaqaga tarqaladi. Ushbu jarayonda "Markaziy Osiyo Qizil kitobi"ni yaratish taklif etilgani juda o'rinni bo'ldi.**

Binobarin, ushbu kitob nafaqat yo'qolib borayotgan turlar haqidagi yagona ma'lumotlar bazasi, balki mintaqa davlatlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi amaliy platformaga aylanishi mumkin. Bu orqali mamlakatlar o'rtasida ilmiy ma'lumot almashish, qo'shma dasturlar ishlab chiqish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish imkoniyati kengayadi.

"Markaziy Osiyo Qizil kitobi"ni yaratish tashabbusi mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga sog'lom atrof-muhitni meros qilib qoldirish yo'lida muhim siyosiy va amaliy qadam bo'ladi. Bu tashabbus Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi ekologik hamjihatlikni yanada mustahkamlab, mintaqaviy hamkorlikning yangi namunasini shakllantiradi.

# TAMADDUN

## tafakkuri

El-yurtimizning fidokorona mehnati bilan bugun orzu-niyatlarimiz ro'yobga chiqdi. Bu betakror ziyoratgohni Imom Buxoriy bobomizning olamshumul mavqeiga, yuksak maqomiga munosib darajada bunyod etishga muyassar bo'ldik. Mana shunday tabarruk maskan barchamizga muborak bo'lsin.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Hakim YO'LDOSHEV olgan suratlar.

## YANGI QIYOFADAGI IMOM BUXORIY MAJMUASI: YETUKLIK RAMZI VA BUNYODKORLIK SALOHIYATI TIMSOLI



### TARBIYA VA IBRAT MASKANING BARPO ETILISHI XRONOLOGIYASI

- Imom Buxoriy maqbarasi yonidagi masjid XVI asrda Buxoro hukmdori Abdullaxon II tomonidan barpo qilingan. To'rt ustun va o'n ikki gumbazli bu nodir inshoot g'ishtdan qurilgan.
- Mustabid tuzum davridagi tazyiqlar masjidni ham chetlab o'tmagan. 1956-yilda ziyoratgohdagi masjidning ochilishiga ruxsat berilgan bo'lsa-da, 1959-yil dekabr oyida yana yopiladi.
- 1972-yildan boshlab, ya'ni Imom Buxoriy tavalludining 1200 yilligi (1974-yil) nishonlanishidan ikki yil avval masjid qaytadan faoliyat yurita boshlaydi.
- O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi qaroriga asosan, maqbara atigi 8 oy mobaynida qayta bunyod etiladi. Maqbara murabba shaklida bo'lib, uning tomonlari 9x9 metrni tashkil etgan. Binoning umumiy balandligi, gumbazi bilan birga 17,6 metrga yetadi. Majmuadagi masjid esa 6 metr balandlikda, 19,5 metr kenglikda va 21,5 metr uzunlikda quriladi. U bir vaqtning o'zida 1500 kishining namoz o'qishi uchun mo'ljallangan edi.
- Prezidentimizning 2020-yil 2-martdagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, ushbu yodgorlik majmuasini yangi loyiha asosida barpo etish ishlariga start berildi.
- Katta sig'imli masjid, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Buxoriy innovatsion muzeyi va Hadis ilmi maktabini o'z ichiga olgan yaxlit zamonaviy majmuva butunlay qaytadan qurilib, 2026-yil bahordan e'tiboran to'liq foydalanishga topshirildi.




Otobek MUHAMMADIYEV,  
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-  
tadqiqot markazi direktori  
o'rinbosari, tarix fanlari  
bo'yicha falsafa doktori

Imom Buxoriy bobomizning islom olamida qanday yuksak maqom va mavqega ega ekanini yaxshi bilamiz. Butun dunyo musulmonlari bu zot mangu orom topgan maskanni ziyorat qilishni yuksak sharaf deb biladi. Lekin shu paytgacha ziyoratgoh bunga to'la imkon bermas, uning atrofida ham shunga yarascha sharoit va imkoniyatlar, sayyohlar uchun qulayliklar bo'lmagan. Ta'bir joiz bo'lsa, majmuva buyuk muhaddis bobomizning ma'naviy merosi va islom olamidagi shuhratiga mos emas edi.

Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori bilan dastlab bu yerda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. So'ng majmuva hududi kengaytirilib, ziyoratchilarga har tomonlama qulaylik yaratilishi hisobga olindi va ziyoratgohni yangidan bunyod etishga kirishildi. Keyingi 7-8 yilda bu yerda loyihalashdan tortib, qurilish, obodonlashtirish ishlarigacha bo'lgan jarayon Prezidentimizning doimiy e'tiborida bo'ldi. Davlatimiz rahbari har gal Samarqandga kelganida, hatto pandemiyada davrida ham, avvalo, majmuadagi ishlar bilan tanishib, qurilishning sifati va xalqaro talablarni darajasida bajarilishini nazorat qildi, zarur tavsiyalar berdi. Ilgari Imom Buxoriy hazratlarining qabri maqbara ostidagi kichik bir xonada bo'lib, bu joyga besh-olti kishigina sig'ishi mumkin edi. Ko'p hollarda nufuzli delegatsiyalar tashrifi chog'ida ushbu holat noqulayliklar keltirib chiqarardi. Bugun esa maqbara ostida joylashgan qabr atrofida yuzlab mehmon tilovat qilishi mumkin.

Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Imom Buxoriy majmuasi ushbu buyuk allomaning xotirasiga, uning ilmga bag'ishlangan umri va islom ilmlariga qo'shgan ulkan hissasiga chuqur ehtirom ramzi sifatida barpo etildi. Prezidentimizning 2020-yil 2-martdagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, ushbu yodgorlik yangi loyiha asosida qayta barpo etildi. Natijada majmuva bugun mukammal ma'naviy yechimga ega bo'ldi.

Binolar qurilishida mamlakatimizning mohir ustalari bilan birga xorijiy davlatlardan kelgan me'mor va hunarmandlar ham ishtirok etdi. Majmuva me'morchiligida milliy va islom me'morchiligi an'analari uyg'unligi namoyon bo'lib, koshinkorlik, naqqoshlik, handasaviy naqshlar va epigrafik bezaklar orqali yuksak



Umumiy maydoni 63,2 gektarni tashkil etuvchi ziyoratgoh hududidagi barcha inshoot yagona ma'naviy va ma'naviy g'oya asosida barpo etilgan. Majmuva tarkibiga Imom Buxoriy maqbarasi, masjid, innovatsion muzey, ma'muriyat binosi, keng ayvonlar va yordamchi inshootlar kiradi. Majmuva peshtoqlari va ayvon devorlariga Qur'oni karim oyatlari va hadislar bitilgan.

metrni tashkil etadi. Bunday muhandislik yechimi ibodatxona ichida keng, yorug' va ochiq fazo yaratib, jamoaviy ibodatni bemaol ado etish imkonini ta'minlaydi. Masjid gumbazining diametri 19 metr bo'lib, uni to'rt tomondan har birining diametri 8 metrli kichik gumbazlar uyg'un tarzda to'ldirib turadi. Zalning barpo etilgan ushbu masjid binosi ochiqlik, birdamlik va bag'rikenglik ramzidir. Ziyoratgohning to'rt burchagida qad rostlagan, balandligi 75 metrga yetadigan to'rt minora majmuaning ma'naviy qiyofasiga o'ziga xos salobat va ko'rk bag'ishlaydi. Ularning mutanosib balandligi va nafis shakli yechimi inshootning ulug'vorligini yanada



badiiy qiymat kasb etgan. Bu jihatdan Imom Buxoriy majmuasi nafaqat ziyoratgoh, balki noyob me'moriy yodgorlik sifatida ham ahamiyatlidir. Umumiy maydoni 63,2 gektarni tashkil etuvchi ziyoratgoh hududidagi barcha inshoot yagona ma'naviy va ma'naviy g'oya asosida barpo etilgan. Majmuva tarkibiga Imom Buxoriy maqbarasi, masjid, innovatsion muzey, ma'muriyat binosi, keng ayvonlar va yordamchi inshootlar kiradi. Majmuva peshtoqlari va ayvon devorlariga Qur'oni karim oyatlari va hadislar bitilgan. Majmuaning asosiy me'moriy markazi bo'lgan masjid ulug'vor qiyofasi va mukammal loyihaviy yechimi bilan har bir ziyoratchini hayratga soladi. Inshootning birinchi qavatini va yer osti qismi 60x60 metr o'lchamda barpo etilgan bo'lib, ichki hajmning o'rta — ustunsiz qismi 38x38

balandligi chetki qismlarda 11,5 metrni tashkil etsa, markaziy qismi 41,1 metrgacha ko'tarilgan. Ana shu me'moriy mutanosiblik va balandlik uyg'unligi imoratga betakror salobat va ulug'vorlik bag'ishlaydi. Masjid bir vaqtning o'zida 10 ming namozxonni sig'ira olish quvvatiga ega. Birinchi qavatdagi asosiy namozgoh 3440 kvadrat metr maydonni egallay, umumiy hajmi 69 ming 429 kub metrni tashkil etadi. Ayollar uchun mo'ljallangan yer osti qismi esa 20 ming 491 kub metr hajmga ega bo'lib, zamonaviy talablarni asosida barcha sharoit yaratilgan. Ushbu ko'lam va me'moriy yechimlar masjidni nafaqat ibodatgoh, balki muhtasham me'moriy obida sifatida ham namoyon etadi. An'anaviy islomiy uslubda, zamonaviy me'moriy yechim uyg'unlashgan holda oshiradi. Uzoqdanoq ko'zga tashlanadigan ushbu minoralar ziyoratgohning ma'naviy nufuzi va me'moriy qudratini ifodalovchi timsol hamdir. Imom Buxoriy maqbarasi — majmuaning ma'naviy markazi. Maqbara binosi yer ustida 14x14 metr o'lchamda qad rostlagan. Eski maqbara qismi 9x9 metrni tashkil etar edi. Imorat umumiy balandligi 28, gumbaz diametri 8,3 metrga teng. Maqbaraning yer osti zali maydoni 1850 kvadrat metr bo'lib, ziyoratchilar uchun shinam sharoit yaratilgan. Majmuaga kirish va chiqishni ta'minlovchi ikki ayvonning har biri 684 kvadrat metr maydonga ega bo'lib, ularning diametri 17 metrni tashkil etadi. Yon ayvonlarda ustun balandligi 7,8 metr, ustunlar orasidagi masofa esa 5,4x5,4 metr. Bu o'lchamlar ayvonlardan kenglik va nafosat uyg'unligini ta'minlagan.

Davlatimiz rahbari har gal Samarqandga tashrifi chog'ida ushbu tabarruk ziyoratgohni tiklash, uning tarixi va mazmunini to'g'ri talqin qilib yetkazish bo'yicha ko'rsatmalar berar edi. 2022-yil 17-18-avgust kunlari Saudiya Arabistoniga davlat tashrifi davomida Prezidentimiz Muhammad alayhissalomning siyratlari va islom sivilizatsiyasi muzeyi bilan yaqindan tanishdi. Shu taassurotlar asosida 2022-yil 24-avgust kuni Imom Buxoriy majmuasiga tashrifi chog'ida berilgan ko'rsatmalar asosida majmuva tarkibidagi innovatsion muzeyni barpo etish ishleri boshlab yuborildi. To'qqiz pavylyondan iborat innovatsion muzey Imom Buxoriyning hayoti va boy ilmiy merosi, islom ma'rifati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini namoyon etadi. Shuningdek, muzey ekspozitsiyalarida Qur'oni karimda ismi zikr etilgan 25 payg'ambar tarixi, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning shajarasi, Makka va Madinadagi hayot yo'llari, buyuk muhaddislar nomi va ular qoldirgan boy meros, hadislarining jamlanishi va yozib olinish jarayoniga oid muhim ma'lumotlar o'rindi.

Ziyoratchilarning majmuva bo'yab qulay harakatlanishini ta'minlash maqsadida zamonaviy lift tizimi o'rnatilgan: 1000 kilo ko'tarish quvvatiga ega panoramali lift, 800 kilogacha ko'taradigan oltita bir tomonlama eshikli lift va 400 kilo yuk ko'taradigan bir tomonlama eshikli lift. Bundan tashqari, ikkita eskalator ham o'rnatilgan.

Majmuva hududida ziyoratchilar uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Ziyoratchilar ekskursiya xizmati, axborot materiallari va ma'rifiy subhatlar orqali buyuk allomaning ibratli hayoti va merosi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu muqaddas qadamjoda avval bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, hozir 65 ming mehmonga xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud. Ziyoratgoh atrofida mehmonxonalar va savdo-servis nuqtalari tashkil etilgan.

Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi bugun O'zbekistondagi eng muhim ma'naviyat va ma'rifat markazlaridan biri sifatida yangidan faoliyat boshladi. O'zining ilmiy ahamiyati, ma'naviy qudrati va me'moriy go'zalligi bilan u inson qalbidagi poklik, ilmga, buyuk ajdodimizga hurmat, milliy va diniy qadriyatlariga sadoqat uyg'unligini mustahkamlaydigan qutlug' maskandir. Bir necha ming namozxonni sig'ira oladigan masjid, mahobatli to'rt minora, innovatsion muzey, zamonaviy lift va eskalatorlar, yuqori o'tkazuvchanlikka ega tahoratxonalar, mehmonxonalar va servis nuqtalari — bularning barchasi majmuaning nafaqat muqaddas maskan, balki yuksak darajadagi xizmat ko'rsata oladigan zamonaviy obyekt ekanidan dalolat beradi. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi buyuk allomaning islom ilmlariga qo'shgan beqiyos hissasiga munosib hurmat ifodasi sifatida asrlar davomida avlodlarga meros bo'lib qoladi.

**EZGU QADRIYATLAR  
TARANNUMI**

**Imom Muhammad Bashar Arafot, Sivilizatsiyalar almashuvi va hamkorlik fondi prezidenti (AQSH):**

— Imom Buxoriy hazratlarining huzurida, uning nomi bilan atalgan ushbu muhtasham majmuada — Hadis ilmi maktabida mehmon bo'lib turganimdan g'oyat mamnunman. Bu muazzam majmua nafaqat tolibi ilmlar, balki islom sivilizatsiyasining dunyo ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan qiziqqan har bir inson uchun muhim ziyo maskanidir.



Muhaddislar sultoni Imom Buxoriy va boshqa buyuk allomalar payg'ambarimizning eng sahih hadislarini bizga yetkazish orqali islom dinining asli mohiyatini saqlab qoldi. Ularning merosi bizga diniy bilimlar bilan birga insoniyat uchun foydali bo'lgan har qanday ilmi, bag'rikenglik va o'zgalaming qarashlarini hurmat qilishni o'rgatadi.

Islom doimiy izlanish va ma'naviy sayohatdir. Barchamiz Odam Ato va Havvo onamizning farzandari sifatida yirik umuminsoniy o'laning a'zolarimiz. Dunyoqarashimiz va ibodatimiz turlicha bo'lishi mumkin, biroq tinchlik va totuvlikda yashash, o'zaro aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yish barchamizning umumiy mas'uliyatimizdir.

Shu ma'noda, faoliyatimizning bosh mezonini muqaddas Qur'oni karimning Hujurot surasi 13-oyatiga asoslanishini ta'kidlamoqchiman. Unda Parvardigorimiz insonlar bir-birini bilishi va tanishi uchun bizni turli millat va elatlar qilib yaratgani bayon etilgan. Maqsadimiz ham aynan shu — diniy va madaniy diplomatiya orqali insonlar o'rtasida anglashuv va hurmat muhitini yaratish.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bilan hamkorlik qilish — fondimiz uchun katta sharaftir. Biz o'zbekistonlik talabalarimiz AQSH, Yevropa va boshqa mintaqalardagi ta'lim dasturlarimizdagi ishtirokiga guvoh bo'lishdan tashqari boy ilmiy merosini o'rganish uchun xorijlik talabalarimizni ushbu muqaddas zaminaga olib kelishdan juda mamnun bo'lamiz. Bu hamkorlik islom qadriyatlarini xalqaro miqyosda to'g'ri ta'lim qilish va sivilizatsiyalararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonaman.



**JAHON ILM-FANI  
XAZINASI**

**Anvar Ahmad ibn G'ulom BAG'DODIY, Bulg'or islom akademiyasi katta o'qituvchisi, islomshunoslik fanlari nomzodi (Rossiya):**



— Yaratganning inoyati bilan yoshligimdagi eng katta orzularimdan biri ushaldi. Ilm-fan manbai va ma'rifat o'chog'i bo'lmish buyuk muhaddis Imom Buxoriyning vatani — O'zbekiston zaminini ziyorat etar ekanman, qalbimda cheksiz quvonch va baxtiyorlik hissini tuymoqdaman.

Yurtimizdagi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish baxti nasib etgani uchun Parvardigorga shukronalar aytaman va bu xayrli safarda ko'maklashgan barcha birodarlarimizga minnatdorlik izhor etaman.

O'zbekiston misli ko'rilmagan boy ilmiy tarixi hamda jahon tan olgan allomalari — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy kabi buyuk farzandlari merosi bilan ko'plab mamlakatlar oldida ilm-fan peshvosi ekanini baralla ayta olaman. Bu zaminidan yetishib chiqqan ulamolalar butun olamga ilm nurini taratgan.

Imom Buxoriy majmuasi, bu yerda joylashgan xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati bilan tanishib, ajdodlar merosini zamon talablariga mos ravishda o'rganish va yoritishdek sharafli vazifa ado etilayotganining shohidi bo'ldim. Markazdagi boy kutubxonada fondi, ayniqsa, nodir qo'lyozmalar mazkur maskanning haqiqiy ilm xazinasi ekanidan dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, ushbu ulug'vor ishlarni tashkil etgan rahbariyatga, markazning barcha ilmiy xodimlariga va fidoyi xizmatchilariga minnatdorligimni izhor etaman. Alloh taolodan bu xayrli faoliyatda kuch-quvvat, ilmu ma'rifaf yo'lidagi xizmatlari evaziga ikki dunyo saodat va barakatini tilab qolaman.




**Imom Buxoriy majmuasi faqat bino va inshootlardan iborat maskan bo'lib qolmay, balki insonlar qalbini zabt etadigan, ayniqsa, yoshlarning hayotda adashmasdan, to'g'ri yo'lni topishiga xizmat qiluvchi ilmiy dargoh, shuningdek, alloma hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi muzeyga ham aylanmoqda. Bu yerda islom dini, xususan, hadis ilmi taraqqiyoti, alloma ilmiy merosining zamonaviy axborot texnologiyalari orqali namoyish etilishi yo'lga qo'yilgan.**

**INNOVATSION MUZEY –  
MA'RIFATNING BOQIY MANBAYI**

Shuningdek, interaktiv xarita orqali Buxoriyning ilm yo'lida safar qilgan shaharlari ko'rsatilgan.

Alloma muqaddas shaharlar — Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis bo'yicha o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-



fanning yirik markazlari hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashaydi. U joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar bilan ilmiy bahs-munozaralarda qatnashadi va tolibi ilmlarga dars beradi.

4-pavilyon "Imom Buxoriy: Buyuk fenomen" deb nomlangan bo'lib, unda allomaning hayoti va faoliyati haqidagi film katta ekranda namoyish etiladi.

5-pavilyonga "Imom Buxoriy fazilatleri" deb nom berilgan. Unda Imom Buxoriyning buyuk ilmiy salohiyati, eng ishonchli hadislarini saralash va avlodlarga


tomoshabinlar uchun muzeylarning bolalar bo'limida olgan ilk tajribasi ular ongida mavzu haqida yetarlicha tasavvur shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Uchar gilamda tarixga sayohat 5D filmi 7 yoshdan yuqori bo'lgan tomoshabinlarga o'rta asrlardagi islom olami shaharlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Tomoshabinlar Imom Buxoriy borgan qadimgi shaharlarga sayohatga taklif etiladi. Film namoyishi davomida undagi voqea va hodisalar bilan hamohang harakatlanuvchi maxsus o'rindiqlarda o'tirgan tomoshabinlar o'zini qadimiy maskanlar bo'ylab uchar gilamda sayohat qilayotgandek his etadi.

Yosh Muhammad ibn Ismoil bilan birga xotira o'yini. Imom Buxoriyning ilmiy merosi va allomaning shaxsiy fazilatleri bevosita xotira bilan bog'liq. U bolaligidan ma'lumotlarni tez va hexato yodda saqlab qolish salohiyatiga ega bo'lgan. Allomaning bunday fazilati haqida tasavvur shakllantirish uchun yosh tomoshabinlar xotira bilan bog'liq interaktiv o'yninga taklif etiladi. O'yinning asosiy qahramoni sifatida yosh Imom Buxoriy qiyofasi aks etadi.

Hamma tomonlariga interaktiv proyeksiya tushirilgan maxsus xonada tomoshabinlarni yosh Muhammad ibn Ismoil kutib oladi. 10-15 daqiqa davom etadigan interaktiv mashg'ulotda bir necha tomoshabin jamoa shaklida ishtirok etishi mumkin.

7-pavilyon "Al-Jome' as-sahih" — Islom dinining ikkinchi manbasi" deb nomlangan. Bu asar hadisshunoslik sohasida umume'tirof etilgan mo'tabar kitob bo'lib, islom olamida Qur'oni karimdan keyingi manba hisoblanadi. Shu sababli ushbu pavilyonda mazkur



qoldirish yo'lida chekkan ilmiy zahmati, taqvoli, islom olamida Qur'oni karimdan keyingi o'rinda turuvchi asar muallifi ekanini, uni butun dunyo e'tirof etgani, yoshligidan zehni o'tkir va xotirasi kuchli bo'lgani, ota-onasi va ustoz-shogirdlariga samimiy munosabati kabi jihatlari ko'rsatib berilgan. Ushbu qismda allomaning ilm yo'lida chekkan mashaqqatlari va sinovlarni yengib o'tishdagi jasorati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu, o'z navbatida, yoshlar qalbidagi ajdodlar bilan faxrlanish tuyg'usini kuchaytiradi.

Pavilyonning butun hududi bo'ylab proyeksiya orqali mavzuni yoritadigan videolar uzluksiz ko'rsatib turiladi. Videofilmlar mavzularga bo'lingan holda ketma-ket davom etib, pavilyonga istalgan vaqtda kelgan tomoshabinlarga mavzuga tezda kirib olish imkoniyatini beradi.

Buyuk imtihon haqida. Mazkur qismda allomaning ilm talabidagi safarlari, sinovlar girdobi — Bag'dod, Samarqand va Nishopurdagi imtihonlar, ilm yo'lidagi mashaqqatlarini sabr-matонат bilan yengib o'tishi, kundun kunga yuksalishi, darajasi ortib borishi va atrofida ixlosmand shogirdlarining ko'payishi maketlar orqali ko'rsatilgan.

Imom Buxoriyning betakror xotira egasi bo'lgani haqida film. Ushbu filmda Imom Buxoriyning xotirasi favqulodda kuchli bo'lgani, eshitgan hadislarini darhol yodlab olgani haqida ma'lumot beriladi. Bilamizki, Imom Buxoriy umri davomida 600 mingdan ziyod hadisni jamlagan, 200 mingtasini roviylari va ularning tarixi bilan birga to'liq yoddan bilgan. Ushbu ma'lumot animatsion tarzda ekranda namoyish etiladi va allomaning xotirasi qanday bo'lgani bugungi kundagi tushunchamiz asosida ko'rsatib beriladi.

"Imom Buxoriy avlodlari" nomli 6-pavilyonda yosh tomoshabinlarga muzey konsepsiyasidan o'rta olingan mavzular bilan o'yinli interaktiv eksponatlar orqali tanishish, o'rganish imkoniyati berilgan. Yosh

buyuk to'planning ilmiy-amaliy, hayotiy ahamiyatini ko'rsatib berish maqsad qilingan.

8-pavilyon "Imom Buxoriy merosi va bugungi kundagi ahamiyati" deb nomlangan. Hozirgi yoshlar tarbiyasida alloma asarlari va hadislarining ahamiyati yuqori ekanini inobatga olib, muzeyning ushbu qismiga alohida e'tibor qaratilgan. Pavilyon markazidagi yirik lavh ustida "Al-Jome' as-sahih" asarining katta hajmdagi maketi o'rta olingan. Uning atrofidan yozuv qog'oz o'ngdan chapga qarab, soat harakatiga teskari ravishda, shiffta tomon aylanib, ko'tarilib chiqqan. Qog'ozning boshlanish qismida to'plamdagi birinchi hadis — payg'ambar alayhissalomning "Albatta, amallar niyatga bog'liqdir. Albatta, har bir kishiga niyat qilgan narsasi bo'ladi" so'zlari 22 ta turli xoriy tilda go'zal xattotlik usulida yozilgan. Qog'ozning davomi (mato shaklida) pavilyon bo'ylab aylanishda davom etadi. Matolar orasi keng bo'lib, matnlarni bemalol o'qish mumkin. Ushbu hadis kundalik hayotimizda sodir bo'layotgan barcha amallar o'zagini tashkil etadi. Shuningdek, ushbu pavilyon devorlaridagi mavjud ekranlarda uch tilda Imom Buxoriyning "Sahih Buxoriy" asaridan tanlangan hadislar joylashtirilgan.

"Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy islohotlar va Imom Buxoriy merosiga e'tibor" deb nomlangan 9-pavilyonda mustaqillik yillarida va yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilayotgan diniy-ma'rifiy islohotlar, xususan, hadis ilmining sultoni — Imom Buxoriyning vatan, millat va din manfaatlari yo'lida qilgan xizmatlarini munosib baholash va ruhini shod etish maqsadida alloma maqbarasi atrofida olib borilgan obodonlashtirish ishlari, uning ulkan merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish va xalqimizga yetkazishga qaratilgan tarjima va nashr ishlari, Imom Buxoriy asarlarini yurtimiz va jahon jamoatchiligi orasida keng targ'ib etish maqsadida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar haqida ma'lumot berilgan.

Ushbu qismda Imom Buxoriy maqbarasining mustaqillikdan oldingi holatini aks ettiruvchi maket joylashtirilgan va yonida majmua haqida ma'lumot yozib qo'yilgan. Shuningdek, maqbaraning yangilangan ko'rinishidagi maketi ham joy olingan bo'lib, u haqida ham qisqacha ma'lumot beriladi. Mustaqillik yillarida obodonlashtirilgan holatdagi ziyoratgoh maketi ham mavjud.

Yangi O'zbekistonda alloma hayoti va ilmiy merosini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va Imom Buxoriy majmuasi butunlay yangi qiyofaga kirganini aks ettiruvchi ko'rgazmalar ham pavilyondan o'rta olingan. Bunda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan:

— 2016-yilning 18-oktabrida Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi yig'ilishida O'zbekiston Prezidenti tomonidan Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi yonida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish tashabbusi ilgari surilgani ko'rsatilgan;

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida: "Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahih Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan", deya ilk bor eng katta minbarida Imom Buxoriy nomini tilga olib, ulug' alloma ilmiy merosi ahamiyatini jahon ommasiga ochib bergan.

Pavilyonning alohida qismidan "Imom Buxoriy" oliy ordeni vitrinasi o'rta olingan. Unda ordenning o'zi, uni ta'sis etish bo'yicha hujjatlar nusxalari joylashtirilgan. Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda 9-pavilyon devoriga Saudiya Arabistoni Podshohi Fahd ibn Abdulaziz tomonidan sovg'a qilingan kiswa — Ka'bapo'sh osilgan bo'lsa, boshqa joyda turli mamlakatlar rahbarlari tomonidan Imom Buxoriy majmuasiga hadya qilingan Qur'oni karim nusxalari joylashtirilgan.

Muzeyning chiqish qismi Imom Buxoriyning so'nggi yillarda nashr etilgan asarlariga oid eksponatlar bilan to'ldirilgan. Ushbu qismdan shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tomonidan amalga oshirilgan "Al-Jome' as-sahih" asarining o'zbek tilidagi eng yirik tarjimai bo'lmish "Oltin silsila: Sahihul Buxoriy" (8 jildli) kitoblari, allomaning ikkinchi bosh asari bo'lmish "Al-adab al-mufrad" kitobiga shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tomonidan yozilgan sharh asosida nashr etilgan "Odoblar xazinasi" (4 jildli) kitoblari, "Birrul volidayn" ("Ota-onaga yaxshilik qilish") kitobi, "Sahih Buxoriy" shahri" kitoblari (27 jildli) va "Imom Buxoriy saboqlari" jurnalining shu choqqacha nashr etilgan nusxalari o'rta olingan.

Bugun yangi O'zbekistonda barcha sohalar qatori diniy-ma'rifiy yo'nalishda, xususan, allomalar ilmiy merosini o'rganish va xalqimiz orasida keng targ'ib qilish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buyuk bobokolonlarimiz abadiy qo'nim topgan joylarni obodonlashtirish, asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, xalqimiz orasida keng targ'ib etish shular jumlasidan. Mazkur tadbirlar natijasi o'laroq, hozirgi



kunda Imom Buxoriy majmuasi to'liq yangidan barpo etilib, uning tarkibida Imom Buxoriy muzeyi ochildi. Yuqorida keltirilganidek, mazkur muzey eng so'nggi texnologiyalar bilan ta'minlangan bo'lib, turli qiziqarli va qimmatbaho eksponatlarini, jozibador ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Muzeyning alloma hayotining turli jihatlarni alohida aks ettirgan bo'limlarga taqsimlangani ziyoratchilarga ma'lumotlarni tizimli va tushunarli tarzda yetkazish imkonini beradi. Bunday ulkan bunyodkorlik ishlari yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

**Azizbek YUSUPOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news



Xolboy IBRAIMOV, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik

Bugun tarixiy bosqichda turibmiz. Davlatimiz taraqqiyotining yangi davrida faqat iqtisodiyot yoki texnologiya bilan emas, balki inson kapitali, ayniqsa, yosh avlod dunyoqarashi, irodasi va ma'naviy-ijtimoiy salohiyati hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida "To'rtinchi sanoat inqilobi markazi"ni tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Bu shunchaki yangi muassasa emas, balki mamlakatimiz taraqqiyotining yangi mantig'i.



# MILLAT KELAJAGI METODOLOGIYASI

## YURTIMIZ YOSHLARI O'ZGARISHLARNI KUTMAYDI, UNI O'ZLARI AMALGA OSHIRADI

Bir savol tug'iladi: to'rtinchi sanoat inqilobiga oddiy, eski tarbiya usullari bilan kirib borish mumkinmi? Menimcha, yo'q. Chunki bu jarayon xomashyodan innovatsiyaga, bilimdan kompetensiyaga o'tishni, oddiy ijrochidan tashabbuskor shaxsga aylanishni talab qiladi. Shuningdek, "ta'lim-tarbiya — ilm-fan — ishlab chiqarish"ni yagona zanjirga ulashni taqozo etadi.

Eng muhim jihat shuki, to'rtinchi sanoat inqilobi zavoddan emas, inson tafakkuridan boshlanadi. Agar tafakkur yangilanmasa, texnologiya ham kutilgan samara bermaydi. To'rtinchi sanoat inqilobi, avvalo, millat dunyoqarashidagi o'zgarishdan boshlanadi. U yoshlardan bilimigina emas, balki tadbirkorlik kompetensiyasi, tashabbus, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz qarori bilan tashkil etilgan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida biznes pedagogika kabi yangi fan yo'nalishiga asos solingani bejiz emas.

Keling, ochiq tan olaylik: bugun dunyodagi ilg'or davlatlar tasodifan bu marrani zabt etgan emas. Ular tarbiyani, ta'limni, innovatsiyani va inson salohiyatini bir tizimga aylantirgani uchun bunga erishgan.

Innovatsiya faqat texnologiya emas, balki tarbiyani tizim sifatida qayta qurishdir. Ya'ni yoshlar tarbiyasini faqat yangi gadjetlar, yangi platformalar yoki yangi tadbirlar bilan isloh qila olmaymiz. Agar tizim bo'lmasa, eng yaxshi texnologiya ham faqat shakl o'zgaritadi, mazmun esa o'sha-o'shaligicha qolib ketaveradi. Shu nuqtayi nazardan, "tarbiyaning innovatsion metodologiyasi" deganda biz to'rt asosni nazarda tutamiz: birinchisi — qadriyat, ikkinchisi — kompetensiya, uchinchisi — muhit, to'rtinchisi — o'lchov.

Nega aynan shu to'rtlik? Chunki qadriyat insonga yo'nalish beradi, inson nimani to'g'ri, nimani noto'g'ri deb biladi? Qonunga, adolarga, mehnatga, insonga qanday qaraydi? Mana shuning markazida qadriyat turadi. Ammo faqat qadriyatning o'zi yetarli! To'g'ri.

Qadriyat yo'nalish bo'lsa, kompetensiya — harakat vositasi. Tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, dalil bilan ishlash, muloqot, jamoada ishlash, qaror qabul qilish — bular qadriyatni hayotga olib chiqadigan vositalardir.

Uchinchi tayanch — muhit. Bolani faqat sinfxona tarbiyalamaydi, uni oila, tengdoshlar, mahalla, media, internet, raqamli maydon tarbiyalaydi. Demak, tarbiya haqida gapirganda, biz bitta auditoriyani emas, butun ta'sir muhitini ko'rishga majburmiz.

To'rtinchi tayanch — o'lchov. Imlda bir oddiy qoida bor: o'lchanmagan narsa boshqarilmaydi.

Bu yerda gap inson qadriini ballga aylantirish haqida emas, tarbiya dasturining samarasini ko'rish haqida. Kompetensiyada, xulqida, mas'uliyatda qanday o'zgarish bo'lganini aniq mezonlar bilan baholash haqida.

Shuning uchun to'rt savolga javob izlaymiz. Birinchidan, nega globallashuv sharoitida tarbiyaga an'anaviy yondashuvlar yetarli bo'lmay qoldi?

Ikkinchidan, innovatsion metodologiyaning asosiy prinsiplari qanday bo'lishi kerak?

Milliy tarbiya modeli asosida bog'cha — maktab — kasb-hunar — OTM zanjirida yagona dinamik tarbiya standartlari yaratiladi. Tarbiyalanganlik darajasini baholash mexanizmi shakllanadi. Oila — maktab — mahalla yagona tarbiya maydoniga aylanadi. Jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit kuchayadi.

Uchinchidan, keys, loyiha, mentorlik, servis-o'qish kabi amaliy instrumentlar amalda qanday ishlaydi?

To'rtinchidan, natijani qanday indikatorlar orqali ko'rish va baholash mumkin?

Maqsadimiz tarbiya haqida umumiy gapirish emas, aksincha, tarbiyani ilmiy asoslangan, natijaga yo'naltirilgan, o'lchanadigan va mashablanadigan tizim sifatida ko'rsatish. Tabiiy savol tug'iladi: nega innovatsion metodologiya haqida aynan hozir gapirishimiz kerak? Axir tarbiya azaldan bor-ku! To'g'ri, bu hamisha bo'lgan. Lekin bugunni tarbiyaga qo'yayotgan talabi mutlaqo boshqacha. Agar kechagay usullar bilan bugungi murakkab dunyoga javob bermoqchi bo'lsak, bir xavf paydo bo'ladi: ko'p harakat qilamiz, kam natija olamiz.

Tasavvur qilay, yoshlar yangi axborot dunyosida yashayapti, iqtisodiyot yangi kompetensiyalar talab qilyapti, jamiyatda yangi xavflar paydo bo'lyapti. Ammo tarbiya esa hali ham eski ko'rinishda qolyapti. Bu yerda nutmunosilik kelib chiqadi. Shuning uchun innovatsion metodologiya shunchaki "yangilikka qiziqish" emas, zamoni talabi.

Birinchii omil — raqamli muhit. Bu dolzarbliktan uchta katta omil orqali tushuntirish mumkin. Raqamli kommunikatsiya muhitining dominantlashuvi. Ilgari yoshlarning axborot manbalari asosan oila, maktab va yaqin atroflar bilan cheklangan edi. Bugun-chi? Bugun ularning diqqati, hissiyoti, fikri, hatto ba'zan pozitsiyasi ham algoritmlar boshqarayotgan axborot maydonida shakllanmoqda.

Bu yerda eng katta muammo nimada?

Fakt bilan fikr, haqiqat bilan manipulyatsiya, axborot bilan ta'sir o'rnatidagi chegara xiralashib ketdi. Demak, tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri — yoshlarda mediasavodxonlik, tanqidiy tahlil, axborot gigiyenasi, dalilga tayangan qarorlar qabul qilish madaniyatini shakllantirishdir. Bu vazifani oddiy nasihat bilan hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus metodologiya kerak.

Bu — zamonaviy dunyoning eng og'riqli paradokslaridan biri. Shuning uchun innovatsion metodologiya tarbiyani gapirishdan bajarishga, tushuntirishdan mashq qildirishga, eshitishdan ishtirok etishga olib o'tishi shart.

Uchinchi omil — ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy immunitet masalasi. Bugungi global muhitda mafkuraviy ta'sirlar, agressiya, radikal chaqiriqlar kabi xavflar kuchayib bormoqda. Shunday sharoitda yoshlarning ichki barqarorligi, qonunga hurmat, adolat hissi, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyati faqat shaxsiy fazilat emas, balki jamiyat xavfsizligining bir qismiga aylanadi. Demak, tarbiya endi faqat shaxsiy kamolot masalasi emas. U — davlatning barqaror rivojlanish strategiyasining bir qismi. Shu uch omildan kelib chiqib, bir xulosaga kelamiz: innovatsion metodologiya tarbiyani yangi sharoitga moslashtiradi. U axborot muhitida adashmaslikka o'rgatadi, yoshlarning kompetensiyaga asoslangan hayotga tayyor va eng muhimi, qadriyatli barqaror fuqaro bo'lib shakllanishida yordam beradi. Endi asosiy tushunchaga o'taylik: "innovatsion metodologiya" deganda nimani nazarda tutaymiz? Ko'pchilik metodologiya deganda metodlar ro'yxatini tushunadi. Aslida esa metodologiya — mantiq, prinsip va boshqaruv

aylantiruvchi boshqaruv shakli. Bu ta'rifning markazida bitta qat'iy qoida bor: og'zaki ta'sirning o'zi yetarli emas, natija ko'rinishi, o'lchanishi, qaysi mexanizm bilan shakllanishi aniq bo'lishi kerak.

Bu metodologiya amalda besh bosqichli sikk sifatida ishlaydi.

Birinchii bosqich — maqsadni aniqlash. Qanday yoshlarni tarbiyalamoqchimiz? "Yaxshi yosh (avlod)" degan umumiy gap bilan ish bitmaydi. Aniq profilni belgilashimiz kerak: qadriyatga sodiq, mas'uliyatli, mustaqil fikrlaydigan, qonuni hurmat qiladigan, raqamli muhitda og'riqli harakat qiladigan yosh.

Ikkinchi bosqich — diagnostika. Real holat qanday? Qaysi jihatlari, qaysi jihati zaif? Axborot gigiyenasi qanday? Jamoada ishlash qay darajada? Qaror qabul qilish madaniyati qay holatda? Diagnostikasiz tarbiya — ko'zni yumgan holda harakat qilish bilan barobar.

Uchinchi bosqich — metod va muhiti loyihalashtirish. Mana shu yerda amaliyot boshlanadi. Keys, loyiha, mentorlik, servis-o'qish, debat, simulyatsiya kabi metodlar tanlanadi. Ammo faqat metod yetarli emas, u ishlaydigan muhit, qoida, rag'bat va mas'uliyat tizimi ham yaratilishi kerak.

To'rtinchi bosqich — ijro va kuzatuv. Bunda tadbir o'tkazishning o'zi maqsad emas, jarayon kuzatiladi, fidbek yig'iladi, ishtirok, intizom, vazifa bajarilishi, xulq dinamikasi tahlil qilinadi.

Beshinchi bosqich — o'lchash, tahlil va korreksiya. Qaysi mexanizm ishlaydi? Qaysi joyda zaiflik bor? Nimani yaxshilash kerak? Ana shu tahlil keyingi siklni kuchaytiradi.

Eng muhim g'oya shu: tarbiya jarayoniga maqsad — diagnostika — loyiha — ijro — tahlil siklini joriy etish kerak. Shunda tarbiya tasodifiy tadbirlar yig'indisi emas, boshqariladigan tizimga aylanadi.

Ko'pincha "innovatsiya" deganda texnologiya, sun'iy intellekt, raqamlashtirish yoki gadjetlar ko'z oldimizga keladi. Lekin tarbiya sohasida innovatsiya bundan kengroq tushuncha. Innovatsiyani to'rt darajada ko'rish mumkin: maqsad, mazmun, metodik va boshqaruv innovatsiyasi. Agar monitoring, fidbek, korreksiya, mas'ullar va resurslar aniq bo'lmasa, eng yaxshi g'oya ham faqat yaxshi niyat bo'lib qoladi.

Maqsad aniq, mazmun kompetensiyaga ulangan, usul faol, boshqaruv esa o'lchashga tayangan bo'lsagina, haqiqiy innovatsion tarbiya tizimi vujudga keladi. Bu indikatorlar ko'p emas, beshta, lekin yetarli. Ular har chorakda bir marta tahlil qilinadi. Natijaga qarab korreksiya kiritiladi.

Endi asosiy xulosalarni bir nuqtaga yig'sak. Birinchii xulosa — tarbiya texnologiyadan

Ikkinchi omil — iqtisodiy va kasbiy dunyoning kompetensiyaga asoslanishi. Bugun dunyoda insondan faqat ma'lumot emas, amaliy qobiliyat talab qilinmoqda. Muammoni



hal qilish, jamoada ishlash olish, tashabbus ko'rsatish, rifaqat tuzish, natijani baholash — mana shu sifatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Agar maktab va tarbiya tizimi bu kompetensiyalarni shakllantirmasa, nima bo'ladi? Javob aniq. Yoshlar ko'p narsani biladi, lekin hayotda qo'llay olmaydi. Nega?

sikli. Ya'ni ishini qanday qurish, qanday boshqarish va qanday takomillashtirish kerakligi haqidagi tizimli yondashuvdir. Shu asosda quyidagi ta'rifni taklif qilamiz.

Innovatsion metodologiya — tarbiyani natijaga yo'naltiriladigan, o'lchanadigan va o'zini o'zi takomillashtirib boradigan tizimga

# INSONPARVARLIK – BOSH MEZON

## Ijtimoiy himoya tizimi samaralari



### Munosabat

Mamlakatimizda inson qadriini ulug'lash, aholining ijtimoiy himoyaga muhoj qatamlarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Sohadagi islohotlar nafaqat ko'lam, balki mazmun jihatidan ham mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Prezidentimiz ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhoj toifalarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish, shuningdek, bu sohadagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishga qaratilgan yangi tashabbuslar paketi ijtimoiy himoya tizimini zamonaviy, manzilli va insonparvar mexanizmlar asosida qayta qurishga xizmat qiladi. Ushbu takliflar fuqarolar hayotini yangillatish, huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan.

pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatiladi. Bu esa nogironlik og'irlashib ketishining oldini olish, bolaning jamiyatga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirish va oilalarning psixologik hamda moliyaviy yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, mazkur xizmatlarning nodavlat sektor orqali ko'rsatilishi raqobat muhitini kuchaytirib, xizmatlar sifatining oshishiga zamin yaratadi.

Ruhiiy holatida buzilish mavjud shaxslar uchun joriy etilayotgan "Yangi kun" kunduzgi qarab turish xizmati, uy sharoitida parvarishlash, kichik hajimli "Madad uyi" hamda "Ijtimoiy ta'lim" kabi xizmatlar esa tizimdagi mutlaqo yangi yondashuvni ifoda etadi. Bu xizmatlar orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning kundalik hayotini ko'nikmalari rivojlantirilishi barobarida jamiyatda mustaqil yashash imkoniyati ham oshiriladi.

Yangi tizimda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining keng joriy etilishi ham alohida e'tiborga loyiq. 600 ga yaqin nodavlat tashkilot va tadbirkorlarning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishiga jalb etilishi xizmatlar qamrovini kengaytirish, hududiy yetarilgini ta'minlash va fuqarolar uchun tanlov imkoniyatini yaratishga

xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu xizmatlar uchun xarajatlarning davlat tomonidan subsidiya qilinishi aholining moliyaviy yukini sezilarli darajada kamaytiradi.

Parvarishga muhojirlarga g'amxo'rlik qilayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi parvarishlash nafaqasining joriy etilishi ham muhim ijtimoiy qadamdir. Bu orqali mehnat bozorida ishtirok etish imkoniyati cheklangan fuqarolar moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi, oilalarning kambag'allik xavfi kamayadi va parvarish mehnati davlat tomonidan munosib baholanadi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy adolat tamoyillarining amaldagi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Internat muassasalarini transformatsiya qilish bo'yicha takliflar ham juda dolzarb. Muruvvat uylarini "G'amxo'rlik" markazlariga aylantirish orqali yopiq muassasalardan ochiq, jamiyatga integratsiyalashgan tizimga o'tish ta'minlanadi. Bu yerda yashovchilar sport, ijod, mehnat va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali mustaqil hayotga tayyorlanadi. Ushbu yondashuv xalqaro ilg'or tajribalarga to'liq mos, insonning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.



Sevara UBAYDULLAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbuslar ham ahmiyatlidir. Nogironlik bo'yicha kamstish uchun javobgarlikni kuchaytirish, sud qarorlarini tushunarli shaklda taqdim etish va manzilli xizmatlarni yagona reyestr orqali janjilli taqsimlash kabi choralar fuqarolar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlaydi. Bu o'zgarishlar davlat xizmatlarining shaffofligi va adolatligini ta'minlaydi.

Kunduzgi parvarish xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari ham aholi va tadbirkorlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ota-onalar uchun moliyaviy yengillik ta'minlanadi. Xususiy sektorning ijtimoiy

ko'ra tizim muhim, ya'ni tarbiya tadbirlar yig'indisi emas, maqsad, mazmun, usul va boshqaruvning o'zaro bog'langan mexanizmi.

Ikkinchi xulosa — tarbiyani barqaror qiladigan kuch — o'lchash — tahlil — korreksiya sikli. Agar shu madaniyat yo'lga qo'yilsa, tarbiya hissiy taassurot emas, dalilga tayangan boshqaruv sohasiga aylanadi.

Uchinchi xulosa — innovatsion metodologiyani harakatlantiruvchi faoliyat. Yoshlar eshitib emas, tajriba orttirib, qaror qabul qilib, natija yaratib kamolga yetadi. Endi tabiiy savol tug'iladi: bu metodologiyaning davlatga, jamiyatga, yoshlarga va oilaga amaliy foydasi nimada? Davlat va jamiyat uchun birinchi foyda — ijtimoiy barqarorlik va ishonch mustahkamlanadi. Qadriyat, qaror madaniyati va jamoaviy mas'uliyat kuchaysa, agressiya, feyk axborot ta'siri pasayadi.

Qonunga hurmat va fuqarolik ongi oshadi. Yoshlar qarorni "me'yor — qadriyat — oqibat" zanjirida qabul qilishni o'rganadi. Inson kapitali sifat jihatdan o'sadi. Tanqidiy fikr, jamoada ishlash, mas'uliyat, tashabbus kabi kompetensiyalar mehnat bozori uchun ham beqiyos ahmiyatga ega. Islohotlarning ijtimoiy tayanchi kengayadi. Natijaga yo'nalgan, og'riqli, proaktiv yoshlar islohotlarni faqat kuzatmaydi, balki unda ishtirok etadi. Deviant xulq va ijtimoiy risklar kamayadi, erta tashxis, mediasavodxonlik, mentorlik va servis-faoliyat bunga xizmat qiladi. Volontyorlik va jamoatchilik tashabbuslari o'sadi, yoshlar muammoni ko'ruvchi emas, yechim taklif qiluvchi kuchga aylanadi. Boshqaruvda dalilga tayangan qarorlar ko'payadi. Tarbiya sohasi hisobotchilikdan natijador boshqaruvga o'tadi. Bu metodologiya yoshlarda qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi, ruhlantiradi. Kommunikatsiya va jamoada ishlashni rivojlantiradi. Amaliyotga yaqin kompetensiyalar beradi. Raqamli immuniteti kuchaytiradi. O'zini o'zi boshqarish va intizomni mustahkamlaydi. Eng muhimi — "men qila olaman" degan ishonchni shakllantiradi.

Oila muammasot madaniyatini yaxshilanadi. Ota-ona uchun ham tarbiyaning aniq va zamonaviy modeli paydo bo'ladi. Raqamli xavflardan xavotir kamayadi. Farzandning mustaqilligi, ishonchligi va mas'uliyati ortadi. Oila va jamoa o'rtasida ijtimoiy bog'liqlik kuchayadi. Uzoq muddatda esa bu iqtisodiy barqarorlikka ham ijroiya ta'sir ko'rsatadi.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti omlari izlanishlari asosida "Milliy tarbiya modeli" loyihasi ishlab chiqildi. Bu modelda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehroqibat, mas'uliyat, bag'rlikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlar rivojlantirildi.

Shuningdek, XXI asr kompetensiyalari — tanqidiy, kreativ fikrlash, muammoni hal qilish, kommunikatsiya, jamoaviy ish, raqamli savodxonlik, o'zini o'zi boshqarish, emotsional intellekt, liderlik va tashabbuskorlik — ushbu model markaziga qo'yilgan.

Milliy tarbiya modeli asosida bog'cha — maktab — kasb-hunar — OTM zanjirida yagona dinamik tarbiya standartlari yaratiladi. Tarbiyalanganlik darajasini baholash mexanizmi shakllanadi. Oila — maktab — mahalla yagona tarbiya maydoniga aylanadi. Jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit kuchayadi.

Qator mamlakatlarda bilim ilmiy-pedagogik aloqalar o'rnatildi. Ilmiy anjumanlar, simpoziumlar o'tkazildi. "Milliy tarbiya. uz" platformasi ishga tushirildi. Demak, gap faqat nazariya haqida emas, gap nazariyaning amaliyotga chiqib bo'lgani haqida.

Yangi O'zbekistonni qurishda yoshlar — strategik resurs. Lekin har qanday resursning haqiqiy qiymati — uni to'g'ri ishga solishda. Agar biz yosh avlodni tasodifiy ta'sirlar itxiyoriga tashlab qo'ysak, imkoniyatni boy beramiz. Aksincha, yoshlar tarbiyasini ilmiy asoslangan, o'lchanadigan, zamonga mos va ma'naviy jihatdan mustahkam metodologiya asosida qura olsak, nafaqat yaxshi o'quvchini, yaxshi mutaxassisini, balki yangi O'zbekistonning tayanchi bo'ladigan shaxsni tarbiyalaymiz.

Shuning uchun bugun gap shunchaki yangi metod haqida emas, millat kelajagi metodologiyasi haqida ketayapti. Tarbiyani tizimga aylantirish, qadriyat kelajakni kutmaydi — uni o'zlari qanday. Yangi O'zbekistonning ertasi bugun biz qanday metodologiyani tanlashimizga bog'liq.

sohadagi ishtiroki kengayadi va yangi ish o'rinlari ochiladi. Bu esa ijtimoiy xizmatlar bozori shakllantirish va barqaror rivojlanishini ta'minlashga zamin yaratadi.

Shuningdek, jamoat transportidan bepul foydalanish huquqiga ega toifalarning kengaytirilishi nogironligi bo'lgan shaxslarning harakatlantirish imkoniyatini oshiradi, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan ayollarni avtomatik ravishda ish bilan ta'minlash mexanizmlarining joriy etilishi esa ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, hayotga qayta integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirishda muhim ahmiyat kasb etadi.

Bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi chora-tadbirlar ham alohida e'tiborga molik. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatlar uchun javobgarlikning kuchaytirilishi profilaktik ta'siri oshiradi, jamiyatda huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik muhitini shakllantiradi, bolalarning huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishini kafolatlaydi.

Taqdim etilgan tashabbuslar ijtimoiy davlat tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida inson qadriini yuksaltirish, davlat yordamini manzilli va adolatli taqsimlash kabi choralar fuqarolar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlaydi. Bu o'zgarishlar davlat xizmatlarining shaffofligi va adolatligini ta'minlaydi.

Kunduzgi parvarish xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari ham aholi va tadbirkorlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ota-onalar uchun moliyaviy yengillik ta'minlanadi. Xususiy sektorning ijtimoiy

Istiqlolim — istiqbolim

# MAHKAM OTANING NAVQIRON 35 YOSHI

## YOXUD AJDODLARIMIZ ORZU QILGAN, INTILGAN VA KURASHGAN ERKINLIK

Tarixning shiddatli oqimida shunday ardoqli sanalar borki, ular xalqning o'zligini anglashi, sha'ni va g'ururini tiklashda bosh mezon bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillik — biz uchun nafaqat siyosiy maqom, balki ota-bobolarimiz asrlar davomida orzu qilgan, intilgan va kurashgan erkinlikdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mustaqillik fenomeni xalqning o'z taqdirini o'z qo'liga olishi va dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashidir.



yurarkan, oldidan chiqqan odamni quchoqlab, das'tarar, quvonchini izhor qilardi. Shunday ko'tarinki kayfiyatda bizning tahriyatga ham kirib keldi. Hayajonini bosa olmayotganidan gaplari uzuq-yuluq chiqardi: — Tabriklayman, ukajon, olamshumul ishlar yuz beryapti. Meni ham qutlanglar. Istiqloqga erishdik. Endi hammamiz mustaqillik. Farzandlarimiz ozod yurtda unib-o'sadi. Men bugun dunyoga qaytadan keldim. Yangidan tug'ilgandekman. Endi mening tavallud kunim bugundan boshlab 31-avgust bo'ladi!

erishilgan yutuqlar va bunyodkorlik ishlarini, mamlakatimiz suveren taraqqiyot yo'lidani ildam va og'ishmay borayotganini, jahondagi tinchlik inqirozi sharoitida mustaqillik — milliy o'zlik va davlatchilik asosi ekanini, yangi O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlar Uchinchi Renessans bunyodkorlarini yuzaga chiqarishga qaratilganini yoritish mas'uliyati. Bunday g'urur, shukh hajda yozmagan, aytmagan shoir, yozuvchi, jurnalist, san'atkor — ijod ahlining qalbida kemtigi bor. Bugun yurtimizdagi har bir islohot "Inson qadri

salohiyatni rivojlantirish mavzularida gap ketsa, qanday qilib sukut saqlash mumkin? Qarorda tavsiya qilingan "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!", "Vatan fidoyilari!", "35 yillik istiqloq yilomasi!", "Vatan manfaat — xalq manfaat!", "Yangi O'zbekiston — ezgu maqsad, yangi harakat!", "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans asiri!", "Mustaqillik — 35 yillik sharaflari yo'li!", "Bir Vatan — bir taqdir!" kabi mavzularning qay birini e'tiborsiz qoldirish mumkin axir? Bu mavzularning har biri, ayniqsa, so'nggi 10 yildagi islohotlar va keng ko'lamlil yangilanishlar katta va salmoqli kitoblar yaratishga arziydi.

"Yo'qotilgan har qanday narsaning o'rmi to'ladi, biroq boy berilgan ma'naviy qadriyat o'rini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydi".

Jadid bobolarimiz ilgari surgan ma'rifatparvarlik g'oyalari bugun biz uchun dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ular ilm-fan va ma'rifat orqali millatni uyg'otishni maqsad qilgan edi. Bugun biz Uchinchi Renessans po'ydevorini qurayotgan ekanimiz, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o'rganish, an'analarini tiklash kabi vazifalar ma'naviy hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanmog'i maqsadga muvofiq.

Besh muhim tashabbus doirasida kitobxonlikning keng tarqib etilishini esa yoshlar ongini yot g'oyalardan himoya qiluvchi ma'naviy qalqonga mengzash mumkin. Mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi va ular davlatimizning diqqati markazida. Bugungi yosh avlodning kayfiyatini aytib bersang, men senga ertangi kuning qanday bo'lishini aytib beraman degan ekan dostonlardan biri. O'zbek yoshlari jahon sahnalarida, innovatsiyalar va sport sohalorida yuksak natijalarga erishmoqda. Ular Vatan ravnaqi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir kuch sifatida shakllandi. Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat ularning shaxsiy kamoloti, balki butun mamlakatning ertangi porloq kelajagi uchun yo'naltirilgan sarmoyadir.

O'zbekiston — 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahil-inoq yashab kelayotgan bag'rikeng diyor. So'nggi yillarda millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglik sohasidagi islohotlar yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni saqlashning asosiy kafolati o'laroq maydonga chiqdi. "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida birlashgan xalqimiz har qanday sinov va qiyinchiliklarni hamijhatlik orqali yengib o'tishga qodir.

Bugungi tahlikali dunyoda tinchlik — eng oliy ne'mat. O'zbekiston mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash borasida faol siyosat yuritmoqda. Mamlakatimizda "tinch yashash huquqi" davlat tomonidan kafolatlangan bo'lib, bu barcha islohotlarning muvaffaqiyati uchun zamin yaratmoqda.

Mustaqillikning o'ttiz beshinchi yiliga kelib, O'zbekiston nafaqat mintaqada tinchlik va xalqaro miqyosda ham muhim siyosiy va iqtisodiy markazga aylandi. Keng jamoatchilik Markaziy Osiyo geografik markazining siyosatida ham, iqtisodiyotida ham tub o'zgarishlar va progressiv islohotlar yuz berayotganiga guvoh bo'lyapti. Natijada O'zbekiston dunyoga ochiq mamlakatga aylandi. Uzoq-yaqin davlatlar bilan do'stligimiz kun sayin rivojlanib, qarodosh xalqlar bilan bir vaqtlar uzilib qolgan aloqalarimiz mustahkamlandi.

Hayot charxpalagi shu qadar tez aylanar ekanki, 35 yil u qadar katta muddat emasdek, biz yashab turgan hozirgi zamon doim shunday tinch, farovon bo'lgandek. Ayniqsa, yosh avlod nazdida hamisha bugungi taraqqiyot asrida yashayotgandek. Ammo katta avlod vakillari yaxshi biladi — mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin bosib o'tilgan mashaqqatli, biroq yangilanish va o'zgarishlarga boy yillarni ortda qoldirishning o'zi bo'lmagan.

Taqdir ekan, harbiy xizmatimni o'tashim 1989-1991-yillari — millatlararo nizolar, milliy kamsitilishlar avj olgan, sobiq ittifoq so'nggi kunlarini yashab, parokandalikka yuz tutayotgan davrlarga to'g'ri keldi. Bir mamlakat deyilsa-da, amalda fuqarolari (ayniqsa, harbiy qismlarda) jiqqamush to'lik darajasiga yetgan edi. Kim va nima uchun ikki yillimni ketkazganimni anglab-anilamay Toshkentga qaytdim.

1991-yil iyulda yoshlar gazetasida musahhif sifatida ish boshlaganimda 20 bilan 21 yosh o'rtasida edim. Tahriyatim Matbuotchilar ko'chasidagi binoning 5-qavatida joylashgan. Unga har kuni kirib-chiqib yurgan odam 7 qavatli muhtasham imoratda ishlaydigan boshqa mehnat jamoalari a'zolari bilan ham ko'zlanish bo'lib ketarkan. Tabiatimiz mos kelibmi, qo'shni tahriyatdagi Mahkam aka bilan tez chiqishib ketdik. Quyug salom-alik qiladigan, bora-bora birga tushlikka chiqadigan bo'ldik.

Aytishicha, yoshi mendan deyarli ikki mualch katta, ya'ni 42 da, o'zi Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidan. Ixtisosligi iqtisodchi, yaxshi joy va lavozimlarda ishlagan. Sog'lig'i tufayli va boshqa sabablar bilan yengilroq ish izlab, 2-3 yildan buyon bir tahriyatda xo'jalik ishlarini boshqarib kelayotgan ekan. Yoshiga nisbatan chuqur mulohazali, ko'p ishga aqli yetar, jo'yali maslahat va tavsiyalar berar edi. Qiziqqunchanligim tufayli avvalgi ishi haqida so'radim.

"Ittifoq markaziga bevosita bo'ysunadigan tashkilotda ishlaganman. Bo'lim mudiri lavozimigacha ko'tarildim, — deya gap boshladi Mahkam aka. — Qishloq xo'jaligi sohasini

rivojlantirish masalalariga mas'ul edim. Qo'l ostimda 3 xodim ishlar, barchasi miyasi butun, faol va tashabbuskor yigitlar edi. Dehqonchilik, bog'dorchilik ishlarini yengillashtirish, hosildorlikni oshirish bo'yicha izlanish hamda tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqib, o'zimiz va xodimlarimizning g'oya hamda takliflarini jadval shaklida tayyorlab, har chorakda tashkilot rahbariga taqdim qilardim. Takliflarimiz jo'yali va mantiqli ekan haqida markazdan tashakkurmoma kelar, ularning muallifi sifatida esa rahbarimiz turli mukofotlar olardi. Bu hodisa bir marta emas, muntazam davom eta boshladi. Bo'limgadi xodimlarning ko'ziga qaray olmay qoldim.

Rahbarimizga: "Axir bu g'oyalari bizning bo'limga tegishli-ku. Xodimlarni ham rag'batlantiraylik, ular ham mehnati zo'ye ketmasligini bilsin", dedim bir kuni xonasiga kirib. — Sen topshiriqlarni indamay bajaraver. Maosh olyapsanlar-ku. Markaz o'zi biladi kimni mukofotlashni-yu, kimni rag'batlantirishni, — dedi ko'zini chaqchaytirib. — O'zlaring qoloq, dehqon xalq bo'lsalaring...

Keyingi gapi jonimdan o'tib ketdi, qon bosimim ko'tarildi. "Bu sohada ishlay olmayman", deb ariza yozdim. Yigitlar ham birin-ketin ishdan bo'shadi. Bunday adolatsizliklar har sohada, har tarmoqda urchib yotibdi. Tuz-nasibam shu yerlarda ekan, tahriyatga kelib qoldim. Mana, hozir jurnalistlar orasidaman..."

Mahkam aka shundan keyingi suhbatlarimizda xalqimizning yer osti boyliklari, uni boshqalar tashib ketayotgani, salohiyatli milliy va mahalliy kadrlarni yuzaga chiqarish siyosati avj olgan, eng quyidan eng yuqori idoralarda ham xalqimizning milliy g'ururi poymol etilayotgani haqida kuyinib gapirardi.

1991-yil 31-avgust — O'zbekiston mustaqilligi baralla e'lon qilingan kuni yuz bergan voqealar, yangiliklar mohiyatini biz — 20 yoshlilar avlodi balki to'liq anglab yetmagan bo'lishimiz mumkin. Ammo Mahkam aka 7 qavatli bino yo'laklari bo'ylab shodan

\*\*\* Davlatimiz rahbarining joriy yil 1-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35-yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori bilan tanishib, beixtiyor yuqoridagi xotiralar xayolimda jonlandi.

Darhaqiqat, mustaqillik — millatning eng yuksak ne'mati, istiqbolning mustahkam po'ydevori va har bir fuqaroning orzu-umidlari ro'yobi. Mazkur hujjat yurtimiz tarixidagi yangi bir dovonni — 35 yillik zafarli yo'lni sarhisob qilish va istiqboldagi ulug'vor maqsadlarni belgilab olish uchun muhim dasturlamal bo'ldi. Undagi "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oya esa yurtimizdagi tub islohotlar, ma'naviy yuksalish va milliy tiklanish jarayonlarini teranroq anglashimizga yordam beradi.

Milliy mustaqilligimiz mard va matonati xalqimizning qat'iy irodasi, istiqloq yo'lida kurashgan fidoyi ajdodlarimiz orzu-umidlarning ro'yobi bo'lib, yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu ishlarimizning mustahkam asosi, kelajak avlodlarimiz uchun bezoval yetkazishimiz shart bo'lgan buyuk va muqaddas qadriyat.

Bugun qalam ahli, xususan, jurnalistlar zimmasida o'ta mas'uliyatli vazifa turibdi. Bu — mustaqilligimizning tarixiy bosqichlari,

uchun" g'oyasiga tayangan holda amalga oshirilayotgani, iqtisodiy islohotlarning insonlar taqdirida aks etayotgani, islohotlar natijasida hayotidan rozi ham yurtlarimiz dilidagi, yuz-ko'zidagi ifodani ilg'ay olmaslik mumkin emas.

Yoshlar uchun barcha sharoitlar yaratilayotgani, ular erishayotgan yutuqlar millatimiz qalbida iftixor va fidoyilik tuyg'usini shakllantirayotgani, yoshlar va ijtimoiy faol qatlamlar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy va intellektual



Nurota tog' tizmalarini gumburlatib qo'shiqqa solgan Ergash Jumanbulbul o'g'li Qo'shrabot tumanining Qo'rg'on qishlog'ida tug'ilib, voyaga yetgan. Jo'sh vohasi deya ta'riflanadigan bu joy keyingi yillarda yanada obod bo'layotir. Ergash Jumanbulbul o'g'lining uy-muzeyi yangilangan binoda faoliyat boshladi. Ergash shoirning uy-muzeyini ko'rgan keluvchilar sezilarli darajada ko'paydi.

Qo'shrabot Nurota va Oqto'v tizmalarini oraliq'ida joylashgan. Hudud aholisi qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Dehqonchilik mahsulotlaridan asosan qora mayiz yetishtiradi.

Tog' xalqi tabiat inijliklari bilan kurashib yashaydi. Bir yil qurg'oqchilik bo'lib, buloqlar

# KO'KLAM KO'KALAMZORLASHTIRISH BILAN KO'RKAM



Yashil makon

qurib ketsa, boshqa yili yog'ingarchilik ko'pligidan sel va ko'chkil arholini qinyaydi.

Qattiq shamol va bo'ronli kunlar uylarning tomini uchirgan, elektr toki o'chgan, simyog'ochlar

qulagan... Matonati odamlar hammasini izga tushirib, ishini davom ettiraveradi.

Har gal poxtaxtdan qishloqqa borar ekanman, qo'shrabotlik shoir Ravshan Fayzning "Ko'nglima orzular solgan qishlog'im" satrlari shuurimda aylanaveradi. Tog'lar chorlayotganga o'xshaydi. Uzoq yillar oldin shu yurtga kelib bo'lib tushganman. Bolalarim har yozgi ta'tilda qirna-qir oshib katta bo'ldi. Ochig'ini aytсам, men Qo'shrabotga — turmush o'rtog'imning yurtiga undan ko'p boraman. Bahor va kuz faslidagi tabiatni yaxshi ko'raman.

Har faslda o'zgaracha tarovat kasb etadigan tog'li qishloqlarimiz ko'rki yildan yil o'zgarib bormoqda. Bu dilga xavotir soladi. Ancha yil oldin tog'da yovvoyi bodom, do'lana kabi butadaxratlar ko'p bo'lar, bahorda gullab, kuzda hosili to'kilib yotardi. Aholi ko'payishi va uylar qurilishi, chorva mollarning tog'larda o'tlashi natijasida butalar kamayib, deyarli yo'qolib ketdi. Tabiat ham e'zozga, mehrga muhoj.

Uning ne'matlaridan foydalanib, qarovsiz qoldirish tog'ning florasi o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi.

Qo'shrabotning Uchqo'l daralarida qishloq ahli tog' bodomi, archa, do'lana kabi daraxtlardan iborat tabiiy florani qayta tiklash ishlarini boshladi. Mevalarning urug'i saralanib, tog' yonbag'irlariga ekib chiqildi. Mingga yaqin urug' va ko'chatni Olloyor Jontoyev boshchiligida qishloq ahli, yoshlar yerga qadam qoldirdi. Akaning aytishicha, urug' va ko'chatlarni kuz faslida ekish ish umumdorligini ta'minlar ekan. "Nasib etsa, kuzda bodom ekish ishlarini yana davom ettiramiz", deydi Olloyor aka.

Bahor kelishi bilan boshlangan bu xayrli ish ko'chatlar parvarishi bilan davom etmoqda. Chorva mollardan asrash, sug'orish ko'p mehnat talab qiladi. Bunda Olloyor Jontoyev yoshlarni, mehmonga kelgan qarindoshlarini, qishloqdoshlarni ishga solmoqda.

"Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi" degan gap bor. Tabiat inijliklari va tashqi ta'sirlar ko'chatlarni nobud qilishi mumkin. Agar 50 foiz buta saqlab qolinishiga erishilsa ham tog' tizmalari yashil makonga aylanadi. Ham shifobaxsh ne'matlar tabobatda ishlatiladi. Olloyor Jontoyev boshlagan xayrli ish boshqa joylardagi tog' aholisiga o'rnak bo'lishiga umid qilamiz.

Bu tuproqdan chiqqan ko'plab o'lmlar, shoirilar, hokimlar, muallimlar, shifokorlar, muhandislar bugun respublikamizning turli hududida mehnat qilmoqda. Qo'shrabotlik adiblarining xotira kechalari, turli tadbirlar ko'p o'tkaziladi. Mana shunday xayrli kechalar qishloqlarga, tog'larga ko'chsa, bu yerga kelgan mehmonlarda yana qayta kelish istagi uyg'onsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Qizg'in mehnatda bahorni boshlagan qishloq bilan xayrlashib, poxtaxtga qaytar ekanimiz, tog'lar kafatni duoga ochib, xo'shlayotganga o'xshardi. Hali bu yerlar Zomin tog'lari kabi joy bo'lishidan umidvormiz.

Manzura SHAMS, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi